

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ.

الدروس النحوية لفضيلة الشيخ محمد علي البجنوري القاسمي.

"ربنا عليك توكلنا وإليك أنبنا وإليك المصير".

"Ey Robbimiz, faqat Senga tavakkal qildik, faqat Sengagina qaytdik va qaytib boradigan joy ham faqat Sengaginadir". (Mumtahina. 4).

Birinchi dars.

Nahv ilmi.

Nahv ilmining doirasi.

Nahv ilmi - ism, fe'l va harflarni qo'llash bilan jumlani qanday tuzishni va mo'rab hamda mabniy bo'lishi sababidan har bir so'zning oxirgi harfi qanday holda bo'lishini o'rganiladigan ilmdir.

Mavzusi - so'z va jumla.

Maqsadi - arab tilida o'qish va yozishdagi sodir bo'ladigan xatolardan shaxsni himoya qilish.

Lafz - inson talaffuz qiladigan narsa bo'lib, ikki qism bo'ladi: Mavzu va Muhmal.

Mavzu lafz - o'zidan ma'no bildiradigan so'z. Masalan: Zayd.

Muhmal lafz - o'zidan ma'no bildirmaydigan so'z. Masalan: Dayz ya'ni Zayd so'zining teskari aytilishi.

Ikkinchi dars.

Mufrad (birlik) va uning qismlari.

Arab tilida mavzu lafz ikki qism bo'ladi: mufrad va murakkab (ya'ni birlik va tuzilgan).

Mufrad - birlik ma'noni bildirgan so'z bo'lib, uni yana "kalima" ham deyiladi. Masalan, "رجل" kabi.

Ism - uchta (o'tgan, hozirgi va kelasi) zamonlardan birini qo'shmagan holda o'zidan ma'no ifoda qiladigan so'zdir. Masalan, "رجل" kabi.

Fe'l - uchta zamondan birini qo'shgan holda o'zidan ma'no ifoda qilgan so'zdir. Masalan, "ضرب" kabi.

Harf - o'zidan ma'no ifoda qilmaydi, balki, o'zidan boshqadagi ma'noni ifoda etadi. Masalan, "من" kabi. U (ya'ni Harf) ikki turli bo'ladi:

Omil (amal bajaruvchi) va G'oyri omil (amal bajarmaydigan).

Uchinchi dars.

Murakkab va uning qismlari va jumlaning turlari.

Murakkab - ikki va undan ko'p so'zlardan tuzilgan lafzdir. Masalan, "القرآن محفوظ" kabi. U ikki turli bo'ladi:

Ifodali va ifodasiz.

Ifodali murakkab - eshituvchiga xabarni yoki so'zlovchi jim bo'lib qolsa talabni ifoda qiluvchi jumladir. Xabarga misol: "زيد عالم" va talabga misol: "اضرب زيدا" kabi. Yana uni "kalom" va "jumla" deb ham ataladi.

Jumla ham ikki turli bo'ladi: xabariy va insho'iy.

Xabariy jumla - uning aytuvchisi bu so'zida rostgo'y yoki yolg'onchi bo'lishi mumkin bo'lgan jumladir. Masalan, "زيد عالم" kabi.

Isnod - ikki so'zdan birining ikkinchisiga mansubligi bo'lib, undan keyin qo'shimcha so'z qo'shilmasa ham eshituvchiga to'la ma'noni ifodalab bera oladi. Jumlaning ikki asosi bor:

"Musnadi ilayh" va "Musnad".

"Musnadi ilayh" - unga ism yoki fe'lni bog'langan ismdir. Masalan, "زيد عالم" va "زيد علم" jumlasidagi "زيد" kabi.

"Musnad" - boshqa ismga bog'langan ism yoki fe'ldir. Masalan, "زيد عالم" va "زيد علم" jumlasidagi "عالم" va "علم" so'zlari kabi.

Xulosa:

Ismni boshqaga bog'lash va unga boshqani ham bog'lash mumkin bo'ladi.

Fe'lni esa boshqaga bog'lash mumkin, ammo, unga boshqani bog'lab bo'lmaydi.

Harfni esa boshqaga va boshqani esa unga bog'lab bo'lmaydi.

To'rtinchi dars.

Ismiy va fe'liy jumla.

Ismiy jumla - boshlanishi ism bilan boshlangan bo'lib, ikkinchi qismi ism yoki fe'l bo'lishi ham mumkin. Masalan, "زيد عالم" va "زيد علم" kabi.

Ismiy jumlaning birinchi qismi "musnadi ilayh" bo'ladi va e'roblashda "mubtado" deyiladi. Ikkinchi qismi esa "musnad" bo'lib, e'robda "xabar" deyiladi. "زيد عالم" jumlasini e'toblashda:

"زيد" - mubtado

"عالم" - uning xabari

deyiladi va mubtado bilan xabardan tashkil topgan jumlaning "ismlik xabariy jumla" deb aytiladi.

Fe'liy juma - fe'l bilan boshlangan jumla bo'ladi. Masalan, "ضرب زيد" kabi. Bu jumlaning birinchi qismi "musnad" bo'lib, e'roblashda "fe'l" deyiladi. Ikkinchi qismi "musnadi ilayh" bo'lib, e'roblashda "foil" deyiladi. "ضرب زيد" jumlasining e'robi:

"ضرب" - fe'l

"زيد" uning foili

bo'ladi va ism bilan fe'ldan tuzilgan jumlaning "fe'llik xabariy jumla" deb ataladi.

Beshinchi dars.

Insho'iy jumla va uning turlari.

Insho'iy jumla - uning aytuvchisini yolg'on yoki rost aytdi deyish mumkin bo'lmagan jumladir. Masalan, "اضرب" degan shaxsga "yolg'on yoki rost aytding" deb bo'lmaydi. Bu jumlaning "insho'iy jumla" deyiladi va u 10 turli bo'ladi:

1. Amr.

2. Nahy.

3. Istifhom.
4. Tamanniy.
5. Tarajjiy.
6. Aqdlar.
7. Nido.
8. Arz.
9. Qasam.
10. Taajjub fe'llari.

1. Amr - biror ishni bajarishni talab qilinadigan insho'iy jumladir. Masalan, "اضرب" yoki "ليضرب زيد" kabi.

2. Nahy - biror ishni bajarmaslikni talab qilinadigan insho'iy jumladir. Masalan, "لا تضرب" kabi.

3. Istifhom - noma'lum narsani bilishlikni talab qilinadigan insho'iy jumladir. Masalan, "هل ضرب زيد؟" kabi.

4. Tamanniy - sevimli narsani hosil bo'lishini talab qilinadigan insho'iy jumladir. Masalan, "ليت زيدا حاضر" va "ليت أيام الشباب يعود" kabi.

5. Tarajjiy - mumkin bo'lgan narsani hosil bo'lishini talab qilinadigan insho'iy jumladir. Masalan, "لعل عمر غائب" kabi.

Oltinchi dars.

Insho'iy jumlar turining qolgani.

6. Aqdlar - kelishuvning amalga oshishini talab qilinadigan insho'iy jumladir. Masalan, oldi-sotdi qilish vaqtida "بعث" yoki "اشتریت" deyishlik kabi. Ammo oldi-sotdi qilib bo'lgandan keyin aytilgan "بعث" yoki "اشتریت" deyishlik xabariy jumla bo'ladi.

7. Nido - chaqiruv harflaridan biri bilan birovni o'ziga qaratishni talab qilinadigan insho'iy jumladir. Masalan, "ياالله" kabi.

8. Arz - eshituvchidan biror ishni bajarishini muloyimlik bilan talab qilinadigan insho'iy jumladir. Masalan, "ألا تنزل بنا فتصيب خيرا" kabi.

9. Qasam - qasam harflaridan biri va qasam ichilgan narsa bilan so'zni ta'kidlanadigan insho'iy jumladir. Masalan, "والله لأضربن زيدا" kabi.

Qasam adoti (quroli) - uning vositasida qasam ichiladigan harfdir.

Qasam ichilgan narsa - u bilan qasam ichiladigan ismdir. Masalan, "والله" so'zida Alloh ta'oloning nomi bilan qasam ichilgan. Shunda "و" qasam adoti (quroli) bo'ladi va buyuk ism "الله" esa qasam ichilgan narsa bo'ladi.

10. Taajjub fe'llari - ajablanganini bildirish uchun ishlatiladigan siyg'ada taajjublanganini bildiriladigan insho'iy jumladir. Masalan, "ما أحسن زيدا" va "أحسن يزيد" kabi.

Yettinchi dars.

Ifodasiz murakkab va uning turlari.

Ifodasiz murakkab - eshituvchiga xabarni yoki so'zlovchi so'zidan sukut qilsa talabni ifoda qilmaydigan murakkab jumladir. U to'rt qism bo'ladi:

1. Izofalik murakkab.
2. Mabniylik murakkab.
3. G'oyri munsariflik murakkab
4. Sifatlik murakkab.

Izofalik murakkab - ikki ism bir biriga izofa bo'lib, ifodasiz bo'lgan jumladir. Masalan, "غلام زيد" kabi. Bu jumlaning birinchi qismi muzof va ikkinchi qismi muzofun ilayh bo'ladi.

Izofa - ikki ismning biri ikkinchisiga mansub bo'lib, avvalgisi ikkinchisini jar qiladi.

Muzof - boshqa ismga izofa qilingan ismdir.

Muzofun ilayh - unga boshqa ismni izofa qilingan ismdir. "غلام زيد" jumlasida "غلام" so'zi muzof va "زيد" so'zi "muzofun ilayh" bo'ladi.

"Muzof" va "Muzofun ilayh"dan tashkil topgan jumla "izofali murakkab" deyiladi.

Sakkizinchi dars.

Mabniylik va g'oyri munsariflik murakkablar.

Mabniylik murakkab - o'zaro nisbati bo'lmagan ikki so'zdan tashkil topgan ifodasiz jumla bo'lib, bu ikki so'zni bitta so'z qilingan bo'ladi va ikkinchi so'z taqdiridagi harfni o'z ichiga olgan bo'ladi. Masalan, "أحد عشر" so'zi. Aslida u "أحد و" "عشر" bo'lgan. Ikki qismi ham fathaga mabniy bo'ladi, faqatgina, "اثني عشر" bundan mustasno bo'lib, uning birinchi qismi mo'rab bo'ladi.

Xulosa:

11 dan 19 gacha bo'lgan sanoqlar "Mabniylik murakkab" bo'ladi va sanoq bo'lmagan boshqa so'zlar ham shular qatorida "Mabniylik murakkab" sanaladi. Masalan, "بيت بيت", "صباح مساء", "ليل نهار", "حين حين" kabi.

G'oyri munsariflik murakkab - o'zaro nisbati bo'lmagan ikki so'zdan tashkil topgan jumla bo'lib, ikkisi bitta so'z qilib yuborilgan va ikkinchi qismi taqdirida harfni o'z ichiga olmaydi hamda ikki qismidan hech biri harf bo'lmaydi. Masalan, "بعلبك" kabi. Buning avvalgi qismi mabniy bo'lib, ikkinchi qismi mo'rab bo'ladi.

To'qqizinchi dars.

Sifatlik murakkab va xulosalar.

Sifatlik murakkab - ikki ismdan tashkil topgan ifodasiz jumla bo'lib, ikkinchisi avvalgisining yoki uni mutaallig'ining holini sifatlab keladi. Masalan, "الرجل العالم" kabi.

Sifat - o'zidan oldin o'tgan ismning yoki uni mutaallig'ining holini bayon qilgan ismdir. Masalan, "الرجل العالم" va "طالب عطوف أساتذته" jumlasidagi "العالم" va "عطوف" kalimasi kabi.

Xulosalar:

1. Ifodasiz murakkab, faqat, jumlaning bir bo'lagi bo'ladi ya'ni "musnad" yoki "musnadi ilayhi" bo'ladi va hech qachon jumla bo'lmaydi. Masalan, "غلام زيد" va "قام غلام زيد" kabi.

2. Jumla doim ikki soʻzdan tashkil topgan boʻlishi shart. Bu ikki soʻzning har ikkisi talaffuz qilingan yoki biri taqdirda boʻlsada. Masalan, "انصر" jumlasini. U taqdirda "انصر أنت" boʻladi.

3. Kalomning maʼnosini toʻgʻri fahmlash uchun "musnad" va "musnadi ilayh"ni bilishlik lozim boʻladi va bu ikkisini bilish uchun uchta narsa shart:

1. Ism, feʼl va harfni ajrata bilish.
2. Moʻrab va mabniyni bilish.
3. Omil va uning maʼmulini bilish.

Shularni bilish bilan "musnad" va "musnadi ilayh"ni ajrata olish mumkin boʻladi va kalomning toʻgʻri maʼnosi yuzaga chiqadi.

Oʻninchidars.

Mashqlar.

Oʻn birinchidars.

Ismning alomatlari.

Ismning quyidagi alomatlari bor:

1. Unga "أل" qoʻshimchasi qoʻshilishi. Masalan, "الرجل" kabi.
2. Jar harfi kirishi. Masalan, "بزيد" kabi.
3. Tanvin kira olishi. Masalan, "رجل" kabi.
4. "Musnadi ilayhi" boʻlishi. Masalan, "قام زيد" jumlasidagi "زيد" kabi.
5. "Muzof" boʻlishi. Masalan, "غلام زيد قائم" jumlasidagi "غلام" kabi.
6. Tasgʻir qilinishi. Masalan, "قريش" kabi.
7. Nisbat qilinishi. Masalan, "بغدادى" kabi.
8. Tasniya (ikkilik) boʻlishi. Masalan, "رجلان" kabi.
9. Jam (koʻplik) boʻlishi. Masalan, "رجال" kabi.
10. Mavsuf (sifatlangan) boʻlishi. Masalan, "رجل عالم" jumlasidagi "رجل" kabi.

11. Nido qilingan bo'lishi. Masalan, "يا زيد" jumlasidagi "زيد" kabi.

12. Yumaloq muannaslik alomati "ة" kirishi. Masalan, "ظلمة" kabi.

Xulosalar:

1. Musag'at ism - obrusiz qilish, kichraytirish, erkalash yoki boshqa sababli "فعليل", "فعيل", yoki "فعليل" vazniga solingan ismdir. Masalan,

"رجل" - "رجيل"

"جعفر" - "جعيفر"

"قرطاس" - "قريطيس"

kabi.

2. Nisbat berilgan ism - bir narsani unga mansubligini bildirish uchun oxiriga o'zidan oldin kasra kelgan tashdidli yo qo'shilgan ismdir. Masalan, "ديوبندي" va "مكي" kabi.

3. Bilingki, fe'l tasniya va jam bo'lmaydi. Ammo fe'lning ba'zi siyg'alariga tasniya va jam atamasini ishlatilishiga sabab uning fo'ilidir. Masalan, "ضربا" so'zida fe'l "الضرب" bo'lib, u bitta. Ammo uni amalga oshiruvchisi ikkita bo'ladi.

O'n ikkinchi dars.

Fe'l va harfning alomatlari.

Fe'lning alomatlari quyidagilar:

1. Unga "قد" so'zi kirishi. Masalan, "قد دخل" kabi.

2. Unga "س" kirishligi. Masalan, "سيضرب" kabi.

3. Unga "سوف" kirishligi. Masalan, "سوف يضرب" kabi.

4. Unga jazm qiluvchilar kirishi. Masalan, "لم يضرب" va "ليضرب" kabi.

5. Unga raf qiluvchi "zamiri bariza" qo'shilishi. Masalan, "ضربت" - damma bilan mutakallim, fatha bilan muzakkar muxotab va kasra bilan muannas muxotab bo'ladi.

6. Unga sukunlik muannas "to" kirishi. Masalan, "ضربت" kabi.

7. Amr bo'lishi. Masalan, "اضرب" kabi.

8. Nahy bo'lishi. Masalan, "لا تضرب" kabi.

9. U "musnad" bo'ladi, ammo, "musnadi ilayhi" bo'la olmaydi. Masalan, "ضرب زيد" jumlasidagi "ضرب" kabi.

Harfning alomati - ism va fe'lning alomatlaridan ajralib qolishidir.

O'n uchinchi dars.

Mo'rab va Mabniy.

Arab kalimalari ikki qism bo'ladi: "Mo'rab" va "Mabniy".

1. Mo'rab - omil sababli oxiri o'zgaradigan kalimadir. Masalan, "جاء زيد", "لم يضرب" va "هو يضرب", "لن يضرب", "زيد" va "مررت بزيد" jumllaridagi "زيد" va "لم يضرب" jumllaridagi "يضرب" kabi.

Xulosalar:

1. Omil - o'zidan keyin kelgan kalimalarda raf, nasb, jar va jazmni paydo qiladigan narsadir. Masalan, zikr qilingan misollardagi "لم", "ب", "راي", "جاء" va "لن" kabi.

2. E'rob - omil taqozo qilgan narsani bayoni uchun kelgan harakat, harf, sukun yoki hazfni aytiladi.

Harakat - damma, fatha va kasra. Masalan, "جاءني زيد", "رأيت زيدا" va "مررت بزيد" hamda "هو يضرب" va "لن يضرب" kabilar.

Harf - و، ا، ي va ن. Masalan, "مررت بأبيك" "هما يضربان" kabi.

Sukun - "لم يضرب" kabi.

Hazf - "ن" yoki illat harfini tushurib yuboriladi. Masalan, "لم يضربا ولم يرم" kabi.

3. E'robning o'rni - mo'rabning oxirgi harfidir. Masalan, "زيد" va "يضرب"dagi "د" va "ب" kabi.

Mabniy - omil o'zgarishi bilan oxiri o'zgarmaydigan kalimadir. Masalan, "هؤلاء", "مررت بهؤلاء" va "جاء هؤلاء", "رأيت هؤلاء" kabi.

O'n to'rtinchi dars.

E'rob va mabniylikning tafsiloti.

Kalimaning uch qismi bo'lmish ism, fe'l va harfdan:

Harflarning barchasi mabniy bo'ladi.

Fe'lning moziy siyg'asi, ma'ruf amr siyg'asi va muzoriy siyg'asining ta'kid yoki muannas to qo'shilgani mabniy bo'ladi. Keyin muzoriga muannas jamning nuni qo'shilganda ham mabniy bo'ladi. Muzoriyning "غائبات" va "مخاطبات" siyg'asi doim mabniy bo'ladi. Masalan,

يضرين، تضرين، لم يضرين، لم تضرين ، لن يضرين، لن تضرين

Bular omil o'zgarishi bilan oxiri o'zgarmaydi.

Saqila va xafifa ta'kid nuni muzoriyning faqat beshta siyg'asiga bevosita qo'shilib keladi: الغائب الواحد، الغائبة الواحدة، المخاطب الواحد، المفرد المتكلم، المتكلم مع الغير. Shu beshta siyg'aning o'zi ta'kid nuni kirishi bilan fathaga mabniy bo'ladi. لا يضرين، لا تضرين، لا تضرين، لا تضرين، لأضرين ، لانضرين kabi.

Ismlarning esa G'oyri mutamakkinlari mabniy bo'ladi.

Xulosa:

Arab tilida faqatgina ikki narsa mo'rab bo'ladi:

1. Mutamakkin ism.
2. Ta'kid va muannas nuni qo'shilmagan muzoriy.

Mutamakkin ism - omil ro'yobga chiqadigan tarzda boshqa bilan tarkib topgan ismdir va u asli manbniyga o'xshamaydi. Buni "Mo'rab ism" deyiladi. Masalan, "زيد" jumlasidagi "جاء زيد" kabi.

Xulosa:

Asli mabniy deb boshqasiga o'xshagani uchun emas, balki, tuzilganda asli mabniy bo'lgan ismni aytiladi. Ular uchta:

1. Moziy.
2. Ma'ruf amr fe'li.
3. Harflarning barchasi.

G'oyri mutamakkin ism - omil ro'yobga chiqadigan tarzda boshqa bilan tarkib topmagan yoki asli mabniyga o'xshagan ismdir. Uni "mabniy ism" ham deb ataladi. Masalan, "جاء هذا" jumlasidagi "هذا" va yolg'iz o'zi turgan "زيد" kalimasi kabi.

O'n beshinchi dars.

G'oyri mutamakkin ismlarning turlari.

G'oyri mutamakkin ismlar sakkiz qism bo'ladi:

1. Zamirlar.
2. Ismi ishoralar.
3. Mavsula ismlar.
4. Ismi fe'llar.
5. Ovoz ismlari.
6. Zarf ismlari.
7. Kinoya ismlar.
8. Mabniy murakkablar.

Zamir - g'oyri mutamakkin ism bo'lib, o'zidan oldin lafz, ma'no yoki hukmda o'tgan mutakallim, muxotab yoki g'oyibga dalolat qilish uchun yasalgan bo'ladi. Masalan, "أنا ، أنت ، هو" kabi.

U besh turli bo'ladi:

1. Marfu' muttasil.
2. Marfu' munfasil.
3. Mansub muttasil.
4. Mansub munfasil.
5. Majrur muttasil.

Bu zamirlar gohida fe'ldan keyin ham kelishi mumkin va e'robda "fo'il" yoki "noibi fo'il" deyiladi. Masalan, "ما ضرب إلا أنا" yoki "ما ضرب إلا أنا" kabi.

Mansub muttasil - nasb qilingan zamir bo'lib, o'zining nasb qiluvchi omiliga qo'shilib keladi va 14 ta bo'ladi:

1. ي
2. نا
3. ك (fathali)
4. كما
5. كم
6. ك (kasrali)
7. كما
8. كن
9. ه
10. هما
11. هم
12. ها
13. هما
14. هن.

Bu zamirlar fe'lga qo'shilib kelsa shu fe'lning maf'uli bo'ladi.

ضربني، ضربنا، ضربك، ضربكما، ضربكم، ضربك، ضربكما، ضربكن، ضربه، ضربهما، ضربهم، ضربها،
ضربهما، ضربهن،

Agar bu zamirlar "hurufu mushabbahatu bil fe'l" harflaridan biriga qo'shilib kelsa uning ismi bo'ladi.

كابي. إنني، إننا، إنك، إنكما، إنكم، إنك، إنكما، إنكن، إنه، إنهما، إنهم، إنها، إنهما، إنهن

O'n yettinchi dars.

Mansub munfasil va majrur muttasil.

Mansub munfasil - nasb qilingan zamir bo'lib, o'zining omiliga qo'shilmagan bo'ladi. U 14 tadir:

1. إياي
2. إيانا
3. إياك
4. إياكما
5. إياكم
6. إياك
7. إياكما
8. إياكن
9. إياه
10. إياهما
11. إياهم
12. إياها
13. إياهما
14. إياهن

E'robda bu zamirlarni "maf'uli bih" deyiladi. Masalan, "إياك ضربت" kabi.

Majrur muttasil - jar qilingan zamir bo'lib, jar qiluvchi omiliga qo'shilib keladi va u 14 ta bo'ladi:

١. ي
٢. نا
٣. ك fathali
٤. كما
٥. كم
٦. ك kasrali

Jam uchun: هؤلاء ، أولاء .

"Uzoq uchun ismi ishoralar":

Muzakkar mufrad uchun: ذلك.

Muzakkar tasniya uchun: ذاك ، ذينك.

Muannas mufrad uchun: تلك

Muannas tasniya uchun: تانك ، ابنك.

Jam uchun: أولئك.

Xulosa:

Agar "mushori ilayh" zikr qilinsa va u jomid ism bo'lsa e'robda "ismi ishora"ni "mubdal minhu" va "mushori ilayh"ni "badal" deyiladi. Masalan, " هذا " kabi. Agar ishtiyoq qilib olingan ism bo'lsa "ismi ishora"ni "mavsuf" va "mushori ilayh"ni "sifat" deb e'roblanadi. Masalan, " هذا الطالب مجتهد " kabi. Keyin "ismi ishora" bilan "mushori ilayh" (birgalikda bo'lsa yoki bo'lmasa ham) jumladagi o'rniga qarab e'roblanadi. Gohida biri "mubtado" va ikkinchisi "xabar" bo'lishi mumkin. O'tgan ikki misoldagi va " هذا رجل "dagi kabi. Gohida esa fo'il, noibi fo'il, maf'ul va sifat kabi boshqasi bo'lishi ham mumkin. Masalan, " قال هذا " kabi.

O'n to'qqizinchi dars.

Mavsula ismlar.

Mavsula ism - g'oyri mutamakkin ism bo'lib, ortidagi silasi bilangina jumlaning mukammal bir bo'lagi bo'la oladi.

Sila - xabariy jumla yoki shibhi jumla bo'lib, mavsula ismning ma'nosini mukammal qilish uchun ortidan keladi va unda mavsulaga qaytadigan zamir bo'lishi shart bo'ladi. Masalan, " جاء الذي أبوه عالم " kabi.

Xulosa:

Silaning boshi - sila u bilan boshlanadigan ism yoki fe'l bo'ladi, garchi u "musnad" yoki "musnadi ilayhi" bo'lsada. Masalan, o'tgan misoldagi " أبوه " so'zi kabi.

Mavsula ismlar:

Muzakkar mufrad uchun: "الذي".

Muzakkar tasniya uchun: اللذان va الذين.

Muannas mufrad uchun: التي.

Muannas tasniya uchun: اللتان va اللتين.

Muannas jam uchun: اللواتي va اللاتي.

ما ،

من ،

أي،

أية .

fo'il yoki maf'ulga "الذي" yoki "التي" ma'nosidagi "أل" qo'shimchasi. Masalan, "الضارب و المضروب" "الذي ضارب و الذي مضروب" ma'nosida.

Bani Toyyi qabilasi tilida "الذي" ma'nosidagi "ذو". Masalan, "جاء ذو ضربك" ya'ni "جاء الذي ضربك".

Bilginki, "أي" mavsulasi izofa qilinsa va uning silasini boshi hazf qilingan zamir bo'lsa uni muftado deb e'roblanadi va u zammaga mabniy bo'ladi. Aks holda mo'rab bo'ladi. Masalan, "زر أيهم أخذ مالك" jumlasida "أيهم هو أخذ مالك" bo'ladi.

Yigirmanchi dars.

Ismi fe'llar.

Ismi fe'l - g'oyri mutamakkin ism bo'lib, fe'lning ma'nosi, zamoni va amalini o'z ichiga oladi, lekin, alomatlarini olmaydi. U ikki qism bo'ladi:

1. Amri hozir ma'nosidagi ismi fe'l.

2. Moziy fe'l ma'nosidagi ismi fe'l.

Birinchi misol:

"رويد" ma'nosidagi "أمهل"

"بله" ma'nosidagi "اترك"

"حيهل" ma'nosidagi "ايت"

"عليك" ma'nosidagi "ألزم"

"ها" ma'nosidagi "خذ".

Ikkinchiga misol:

"هيهات" ma'nosidagi "بعد"

"شتان" ma'nosidagi "افترق"

"سرعان" ma'nosidagi "سرع".

Yigirma birinchi dars.

Ovoz va zarf ismlari.

Ovoz ismi - g'oyri mutamakkin ism bo'lib, ovozni hikoya qilinadi yoki hayvonlarga shunday ovoz qilinadi.

Birinchiga misol:

"أح أح" uchun ishlatiladigan

Og'riqni bildiradigan "أف"

"غاق غاق" ovoz chiqaradigan

Ikkinchiga misol:

Tuyani cho'ktirish uchun "نخ نخ" deyish kabi.

Ismi zarf - g'oyri mutamakkin ism bo'lib, fe'lning zamoni yoki makoniga dalolat qiladi. U ikki qism bo'ladi: zarfi zamon va zarfi makon.

Zarfi zamon - fe'lning vaqtiga dalolat qiladigan ismdir. Masalan, "إذ ، إذا ، متى ، كيف ، أمان ، أمس ، مذ ، منذ ، قط ، عوض ، قبل ، بعد" kabi.

Zarfi makon - fe'lning makoniga dalolat qiladigan ismdir. Masalan, "حيث ، فوق ، خلف ، تحت ، قدام" kabi.

Xulosa:

"قبل ، بعد ، عوض ، قدام ، خلف ، تحت ، فوق"

Bu zarflar "muzof" holda ishlatiladi. Agar unga "muzofi ilayh" qilingan soʻz hazf qilingan boʻlsa u zammaga mabniy boʻladi va hazf qilinmasa moʻrab boʻladi.

Mabniyga misol:

"صعد عمرو فوق"

Moʻrabga misol:

"صعد عمرو فوق الشجرة".

Yigirma ikkinchi dars.

Kinoya ismlari va mabniy murakkab.

Kinoya ismi - gʻoyri mutamakkin ism boʻlib, nomaʼlum son yoki nomaʼlum soʻzga dalolat qilish uchun yasalgan boʻladi. U toʻrttadir.

Nomaʼlum son uchun: "كم" va "كذا". Masalan, "كم درهما عندك؟" va "كذا درهما" "عندي".

Nomaʼlum soʻz uchun: "كيت" va "ذيت". Masalan, "قال زيد كيت كيت".

Xulosa:

"ذيت" va "كيت"

soʻzi mafʼuli bih boʻlib keladi.

"قال زيد ذيت ذيت"

eʼtoblashda:

"قال" - feʼl

"زيد" - foʻili

"ذيت ذيت" - mafʼuli bih deyiladi.

Feʼl, foʻil va mafʼuldan tuzilgan bu jumla "feʼllik xabariy jumla" deb ataladi.

Mabniy murakkab - bu haqda ifodasiz murakkabda oʻtdi.

Yigirma uchinchi dars.

Maʼrifa va nakra.

Ism umumiy va xususiy bo'lishi e'tiboridan ikki qism bo'ladi: Ma'rifa va Nakra.

Ma'rifa - muayyan narsa uchun yasalgan ismdir. Masalan, "ثناء الرحمن" kabi. U yetti xil bo'ladi:

1. Zamir.
2. Alam.
3. Ismi ishora.
4. Ismi mavsula.
5. Ma'rifaligi "أل" bilan bo'lgan.
6. Shu beshta ma'rifadan biriga izofa bo'lgan.
7. Nido bilan ma'rifa bo'lgan.

1. Alam - muayyan narsa uchun qo'yilgan ism bo'lib, qo'yishda boshqasi nazarda tutilmagan. Masalan, "خالد ، مكة المكرمة ، زمزم" kabi.

2. Ma'rifaligi "أل" bilan bo'lgan - "أل" qo'shimchasi kirgizib, ma'rifa qilingan ismdir. Masalan, "الرجل" kabi.

3. Ma'rifaga izofa bo'lgan - nidodan boshqa mazkur beshta ma'rifadan biriga izofa qilingan ismdir. Masalan, "قلم ماجد ، قلم هذا ، قلم الرجل ، قلم الذي" غلامه ، قلم ماجد ، قلم هذا ، قلم الرجل ، قلم الذي " kabi.

4. Nido bilan ma'rifa bo'lgan - nido harflaridan biri bilan chaqirilganligi sababli ma'rifa bo'lgan ismdir. Masalan, "يا رجل" kabi.

Xulosa:

Zamir, ismi ishora va ismi mavsula haqida aytib o'tdik. Bilingki, ismi ishora va ismi mavsulalar "mubhamlar" deb ham nomlanadi. Chunki, "mushori ilayh"ga ishora qilinmagan ismi ishora mubham bo'ladi. Huddi shunday, silasi bo'lmagan ismi mavsula ham mubham hisoblanadi.

Nakra - muayyan bo'lmagan narsa uchun yasalgan ismdir. Masalan, "رجل" kabi.

Yigirma to'rtinchi dars.

Jins e'tiboridan ism ikki turli bo'ladi:

Muzakkar va Muannas.

Muzakkar - unda muannaslik alomati lafzda va taqdirda ham topilmagan ismdir. Masalan, "رجل" kabi.

Muannas - unda muannaslik alomati lafzda yoki taqdirda topilgan ismdir. Masalan, "ذكية ، عين" kabi.

Muannaslikning uchta alomati:

1. To marbuta (ة). Ya'ni vaqf qilinganda ة ga aylanadigan to. U lafzda bo'ladi: طلحة kabi va taqdirda bo'ladi: أرض kabi. Chunki, أرض so'zining asli أرضة bo'lgan. Bunga dalil: uni tasg'ir qilinganda "أريضة" bo'ladi. Qoidaga ko'ra tasg'irda ism asliga qaytariladi.

2. Alif maqsura. Masalan, سلمى kabi.

3. Alif mamduda. Masalan, حمراء kabi.

Xulosalar:

1. To marbutani (ة) qaysi ma'noda ishlatilsada u so'zning lafzda muannas ekanligini bildiradi.

2. Muannaslik uchun kelgan alif maqsura - mo'rab ismning oxirida kelib, shu ismning muannas ekanligiga dalolat qiladigan alifdir. حلى kabi.

3. Muannaslik uchun kelgan alif mamduda - muannasligi uchun ismning oxirida keladigan qo'shimcha alif bo'lib, undan oldin mad uchun qo'shimcha alif bo'ladi. حمراء kabi.

Yigirma beshinchi dars.

Muannasning turlari.

Zoti jihatidan muannas ikki turli bo'ladi: "muannasi haqiqiy" va "muannasi lafziy".

Muannasi haqiqiy - muannas bo'lib, uning aksi "erkak" jonzot bo'ladi. Masalan, امرأة aksi ناقه ، رجل aksi جمل.

Muannasi lafziy - muannas bo'lib, uning aksi "erkak" jonzot bo'lmaydi. Masalan, ظلمة ، قوّة ، طلحة kabi.

Xulosa:

Muannas - alomatiga ko'ra ikki qism bo'ladi: qiyosiy muannas va samo'iy muannas.

Qiyosiy muannas - u muannas bo'lib, siyg'asi muannaslikning zohir alomati bilan birga bo'ladi. Masalan, خالدة kabi.

Samo'iy muannas - u muannas bo'lib, uning siyg'asi muannaslikning zohir alomatidan ajralgan bo'ladi va uning muannasligi arablardan eshitilgan narsa bilan cheklanadi. Masalan, عين kabi. Bu turdagi so'zlarni "Ma'naviy muannas" ham deyiladi.

Yigirma oltinchi dars.

Mufrad, tasniya va jam.

Son jihatdan ism uch turli bo'ladi: mufrad, musanno va majmu'.

Mufrad - bittaga dalolat qiladigan ismdir. Masalan, امرأة ، رجل kabi.

Musanno - ikkitaga dalolat qiladigan ism bo'lib, mufradning oxiriga alif yoki o'zidan oldingisi fatha bo'lgan yo va kasrali nun qo'shiladi. Masalan, رجّان ، رجّلين kabi.

Majmu' (jam) - ikkitadan ko'pga dalolat qiladigan ism bo'lib, uning mufradi lafzda yoki taqdirda o'zgaradi. Lafzda o'zgarishiga misol: "رجل = رجال". Taqdirda o'zgarishiga misol: "فلك". Bu so'z "أسد" vazniga ko'ra jam va "قفل" vazniga ko'ra mufrad bo'ladi.

Keyin lafziga ko'ra jam ikki turli bo'ladi: "jam taksir" va "jam tas'hih".

Jam taksir - mufradining ko'rinishi o'zgarib ketadigan jamdir. Ya'ni mufradining harflarini tartibi yoki harakat va sukunlari lafzda yoki taqdirda o'zgarib ketadi. Masalan, "أسد ، فلك ، رجال" kabi.

Xulosa:

Sulosiydagi jam taksirning ko'rinishi faqatgina eshitish orqali bilinadi va uning alohida qoidasi yo'q. Ruboiy va xumosiylarda "فعالل" va "فعاليل" vaznida keladi. Masalan, دينار=دنانير ، جحامر = جحمر يش = جعافر . جعفر = جعافر kabi.

Ismi jam - ikkidan ko'pga dalolat qilgan ism bo'lib, uning lafzi va ma'nosida mufradi bo'lmaydi va jam taksir vaznilaridan birida ham kelmaydi. Masalan, ناس ، ركب ، رهط ، ركب kabi

Yigirma yettinchi dars.

Jam solim va uning turlari.

Sahih jam - mufradining ko'rinishi o'zgarmaydigan jamdir. Ya'ni harflarning tartibi yoki harakat va sukunlarida lafziy va taqdiriy o'zgarish sodir bo'lmaydi. Masalan, "مسلم=مسلمون" kabi va uni "jam solim" ham deyiladi.

Keyin "jam solim" ham ikki qism bo'ladi:

Jam muzakkar solim

Jam muannas solim.

Jam muzakkar solim - mufradining oxiriga o'zidan oldingi harf zammalik bo'lgan vov va fathali nun yoki o'zudan oldingi harf kasrali bo'lgan yo va fathali nun qo'shilgan solim jamdir. Masalan, "مسلمون و مسلمين" kabi.

Jam muannas solim - mufradining oxiriga alif va to qo'shilgan solim jamdir. Masalan, "مسلمات" kabi.

Keyin ma'nosiga qarab jam ikki xil bo'ladi:

Jam qilla

Jam kasra

Jam qilla - 10 va undan oz sonlar uchun ishlatiladigan jamdir. Uning 6 ko'rinishi bor:

1. أفعال - أقوال جمع قول .

2. أفعال - أكلب جمع كلب .

3. أفعلة - أفعلة جمع عوان.

4. فعلة - غلمة جمع غلام.

5. مسلمون. qo'shimchasi qo'shilmagan jam muzakkar solim. أل

6. مسلمات. qo'shimchasi qo'shilmagan jam muannas solim. أل

Jam kasra - 10 dan ko'p son uchun ishlatiladigan jamdir. Uning ko'rinishi "jam qilla"dan boshqalaridir. Masalan, "مسلمون" kabi.

Yigirma sakkizinchi dars.

Munsarif va g'oyri munsarif.

Munsarif - mo'rab ism bo'lib, unda sarfdan man qiladigan sabablardan ikkitasi yoki ikkitasini o'rniga o'ta oladigan bittasi topilmaydi. Masalan,

"جاءني نبيل", "رأيت نبيل", "مررت بنبيل".

G'oyri munsarif - mo'rab ism bo'lib, ikkita sabab yoki ikkita o'rniga o'ta oladigan bitta sabab topilgan ismdir. Masalan, "عمر ، مساجد".

Hukmi - unga kasra va tanvin kirmaydi va doimo jar o'rnida fathali bo'ladi. Masalan,

"جاءني عمر ، رأيت عمر ، مررت بعمر".

Sarfdan man qiluvchi sabablar 9 tadir:

1. Adl

2. Vasf

3. Muannaslik

4. Ma'rifa

5. Ajamlik

6. Jam

7. Tarkib

8. Qo'shimcha alif va nun qo'shilgan

9. Fe'l vazni.

Adl - ismning asli siyg'asidan boshqa siyg'aga, sarf qoidalarisiz, asli o'zagini saqlab qolgan holda o'zgarishidir. Masalan, "ثلاث" so'zi aslidagi "ثلاثة ثلاثة" siyg'asidan sarf qoidasisiz chiqib ketgan. "عمر" so'zi ham aslidagi "عامر" siyg'asidan sarf qoidasisiz chiqib ketgan. "ثلاث و عمر" so'zlarida adl bor.

Xulosa:

Adlning 6 ta vazni bor:

سحر - فعل (muayyan kunning kechasini oxiri)

قطام - فعال (ayol ismi)

فعال - ثلاث

مفعل - مثلث

فعل - آخر

فعل - أمس (o'tgan muayyan kun).

Yigirma to'qqizinchi dars.

Vasf, muannaslik va ma'rifa.

Vasf - ba'zi sifatlari mulohaza qilingan mubham shaxsga ismning dalolat qilishidir. Masalan, "أحمر" kabi. U ikki turli bo'ladi: "asliy vasf" va "oriziy vasf".

Asliy vasf - kalimani tuzish vaqtida topilgan sifatdir, keyin u sifat boqiy qolish yoki qolmasligining farqi yo'q. Masalan, "أسود" kabi.

Oriziy vasf - kalima tuzilgan vaqtida topilmagan va iste'mol qilish vaqtida paydo bo'lgan sifatdir. Masalan, "مررت بنسوة أربع" jumlasidagi "أربع" kabi.

Bilginki, asliy sifatgina sarfdan man qilishga sabab bo'ladi.

Muannaslik - ismda muannaslik alomatini lafzda yoki taqdirida bor bo'lishidir. Masalan, "طلحة، دار" kabi. Muannaslikning to'rt alomati sarfdan man qilishga sabab bo'ladi va "ة" bilan muannaslik va ma'naviy muannaslik sarfdan man qilishga sabab bo'lishi uchun "alam" bo'lishi ham shart qilinadi. Masalan, "طلحة، زينب" kabi. Ammo, maqsura alif va mamduda alif bilan bo'lgan muannaslikning har biri ikkita sabab o'rniga o'tadi.

Ma'rifa - muayyan narsaga dalolat qilgan ism bo'lib, ma'rifaning yetti turidan faqatgina "alam" sarfdan man qiladi.

O'ttizinchi dars.

Ajamlik, jam va tarkib.

Ajamlik - arablardan boshqalar tuzgan ismdir. Masalan, "إبراهيم" kabi. U sarfdan man qilishga ta'sir qilishi uchun ikki shart bo'lishi kerak:

1. Ajam tilida ham u alam ism bo'lishi kerak. "إسماعيل ، قالون" kabi.

2. Ikki narsadan biri: uchta harfdan ziyoda bo'lishi kerak. Masalan, "إبراهيم" kabi. Yoki uchta harfli bo'lib, o'rtadagi harf harakatli bo'lishi kerak. Masalan, "شتر" kabi. (Diyorbakrdagi qo'rg'onning nomi).

Jam - mufradining ko'rinishi lafz yoki taqdirda o'zgargani sababli ikkidan ko'pga dalolat qilgan ismdir. Masalan, "مساجد" kabi. U sarfdan man qilishga ta'sir qilishi uchun ikkita sharti bor:

1. Jamning oxirgi jami bo'lishi kerak.

Jamning oxirgi jami - har bir taksir jami bo'lib, jam alifidan keyin ikkita harf bo'ladi. Masalan, "مساجد ، دواب" kabi. Yoki uchta harf bo'ladi va o'rtadagisi sukunli bo'ladi. Masalan, "مصاييح" kabi.

2. Uning oxirida vaqf qilganda "ه"ga aylanadigan "ة" kelmasligi kerak. Agar "ة" kelsa munsarif bo'ladi. "صياقلة" kabi.

Jam alifi - undan oldin ikkita fathali harf kelgan alifni aytiladi.

Tarkib - harf uning bir bo'lagi bo'lmasdan ikki va undan ko'p so'zlarning bitta kalimaga aylanib ketishidir. U sarfni man qilishiga ta'sir qilishi uchun ikki shart topilishi kerak:

1. Izofa yoki isnod bo'lmasligi.

2. Alam bo'lishi. Masalan, "بعلبك ، حضرموت" kabi.

O'ttiz birinchi dars.

Fe'l vazni.

Fe'l vazni - fe'llarning vaznidan deb bilingan vaznlardan birida bo'lgan ismdir. Fe'l vaznining sarfni man qilishiga sabab bo'lishining sharti:

"Fe'lga xos bo'lishi ya'ni uni ismda fe'ldan naql qilibgina ishlatilishi lozim. Masalan,

تفعليل - فعل bobining ma'lum moziysi.

شمر - Hajjoning otini ismi

فعل - sulosiy mujarradning moziysini majhuli

دؤل - qabila nomi.

Yoki u ismning boshida "أتين" harflaridan biri qo'shimcha ravishda kelishi va oxirida (ة) kelmasligi. Masalan, تغلب، يشكر، أحمد so'zlarini alam qilib ishlatilsa.

Xulosa:

Fe'l vazni sarfdan man qilishga ta'sir qilishi uchun aytib o'tilgan ikki shartdan biri topilishi lozim bo'ladi va yoki ikkisi ham bir kelishi mumkin. Masalan, birinchi shart uchun "شمر", ikkinchi shart uchun: "أحمد" va ikkisi uchun: "يشكر". Chunki bu ism fe'lga xos va boshida "أتين" harflaridan biri qo'shimcha kelgan.

O'ttiz ikkinchi dars.

Qo'shimcha alif va nun.

Qo'shimcha alif va nun - ismning oxirida qo'shimcha alif va nun kelishidir. Masalan, عثمان kabi. Agar alif va nun ismi zotda kelsa uning sarfdan man qilishga sabab bo'lishing sharti alam bo'lishidir. Ammo ismi sifat oxirida kelsa sharti u ismning muannasi فعلانة vaznida bo'lmasligidir. Masalan, سكران kabi. Chunki, uning muannasi سكرى bo'ladi.

Ismi zot - zotga dalolat qilgan ism bo'lib, u bilan sifat mulohaza qilinmaydi. Masalan, عمران kabi.

Ismi sifat - zotga dalolat qilgan ism bo'lib, u bilan sifat mulohaza qilinadi. Masalan, سكران kabi.

Xulosa:

Sarfdan man qilingan ismga **أل** kirsra yoki izofa qilinsa unga jar holda kasra kira oladi, ammo tanvin emas. Masalan, **دخلت في المساجد ، دخلت في مساجدكم** kabi.

O'ttiz uchinchi dars.

Umumiy tamrin.

O'ttiz to'rtinchi dars.

Qandayligiga ko'ra e'robning turlari.

E'robning qandayligiga ko'ra uch turli bo'ladi:

Lafziy e'rob, taqdiriy e'rob va mahalliy e'rob.

Lafziy e'rob - lafzda ko'rinadigan e'robdir, ya'ni uning alomati kalimaning oxirida zohir bo'ladi. Masalan, **مررت بنبيلا ، رأيت نبيلا ، جاء نبيلا** kabi.

Taqdiriy e'rob - lafzda ko'rinmaydigan e'robdir, ya'ni uning alomati kalimaning oxirida zohir bo'lmaydi, balki taqdir qilinadi. Masalan, **جاءت سلمى ، مررت بسلمى** kabi.

Mahalliy e'rob - mabniy ismga tushgan e'robdir, ya'ni bu mabniy ism shunday o'ringa tushadiki, agar uning o'rniga shu ma'nodagi mo'rab ism qo'yilsa unda e'rob lafzda yoki taqdirda ko'rinadi. Masalan, **هؤلاء** jumlasidagi **جاء هؤلاء** so'zi kabi.

Xulosa:

E'robning e'tibori bilan ism uch holatda bo'ladi:

Raf holati - bu holda ism marfu' bo'ladi.

Nasb holati - bu holda ism mansub bo'ladi.

Jar holati - bu holda ism majrur bo'ladi.

O'ttiz beshinchi dars.

Mutamakkin ismning turlari va ularning e'robi.

Mutamakkin ism e'robning turiga qarab 16 qism bo'liladi:

1. Munsarif bo'lgan sahih mufrad - tasniya ham, jam ham, g'oyri munsarif ham bo'lmagan va oxiri illatli harf bo'lmagan ismdir. Masalan, **خالد** kabi.

2. Sahih yo'nalishidagi munsarif bo'lgan mufrad - munsarif bo'lgan mufrad ism bo'lib, oxirida o'zidan oldingi harf sukunli bo'lgan ي yoki و bo'ladi. Masalan, مدني ، دلو ، kabi.

3. Munsarif bo'lgan jam taksir - munsarif bo'lgan jam taksir. Masalan, رجال kabi.

Bu uchta e'rob raf holatida zamma, nasb holatida fatha va jar holatida kasra bilan harakatli bo'ladi. Masalan, رأيت خالدات مدنيا و ، جاء خالد و مدني و رجال ، مررت بخالد و مدني و رجال kabi.

O'ttiz oltinchi dars.

Jam muannas solim, g'oyri munsarif va olti ismlarning e'robi.

4. Jam muannas solim - oxiriga ا va ت qo'shimcha qilingan jamdir. Masalan, خطابات ، مسلمات kabi. Raf holida zamma bilan, nasb va jar holida kasra bilan harakatlantiriladi. Masalan, مررت بمسلمات ، رأيت مسلمات ، جاءت مسلمات kabi.

5. G'oyri munsarif - u haqida oldin o'tdi. Raf holida zamma bilan, nasb va jar holida fatha bilan harakatlantiriladi. Masalan, مررت بعمر ، رأيت عمر ، جاء عمر kabi.

6. Olti ism (mukabbar - tasg'ir emas - birlik va mutakallim ي ga izofa qilinmagan holida) -

١. أب

٢. أخ

٣. حم

٤. هن

٥. فم

٦. ذو (ega ma'nosidagi)

Bu olti ism raf holida و bilan, nasb holida ا bilan va jar holida ي bilan e'roblanadi. Masalan, مررت بأبيك ، رأيت أباك ، جاء أبوك kabi.

O'ttiz yettinchi dars.

Tasniya, jam muzakkar solim va u ikkisiga qo'shilganlarning e'robi.

7. Tasniya - ikkitaga dalolat qilgan ism bo'lib, mufradining oxiriga o'zidan oldingi harf fathali bo'lgan ا yoki ي va kasrali ن qo'shimcha qilinadi. Masalan, رجلا ن ، رجلا ن kabi.

8. Bu اثنا ن va اثنا ن .

9. Bu كلا va كاتا (zampirga izofa qilinsa).

Bu uchta qism raf holida ا bilan, nasb va jar holida o'zidan oldingi harf fathali bo'lgan ي bilan e'roblanadi. Masalan, رآيت رجلا ن و كلاهما ، رآيت رجلا ن و كاتا ن kabi.

Jam muzakkar solim - ikkidan ko'pga dalolat qilgan ism bo'lib, mufradining oxiriga o'zidan oldingi harf zammali bo'lgan و yoki o'zidan oldingi harf kasrali bo'lgan ي va fathali ن qo'shimcha qilinadi. Masalan, مسلمون ، مسلمين kabi.

11. 20dan 90gacha sonlar. (so'zi ham)

12. Egasi ma'nosidagi أولو so'zi - doim ismi jinsga izofa bo'lib keladi. Masalan, أولو مال kabi.

Bu uchta qism raf holida o'zidan oldingi harf zammali bo'lgan و bilan, nasb va jar holida o'zidan oldingi harf kasrali bo'lgan ي bilan e'roblanadi. Masalan, رآيت مسلمون و أولو مال ، رآيت مسلمين و عشرين رجلا ن و أولي مال ، مررت بمسلمين و عشرين رجلا ن و أولي مال kabi.

O'ttiz sakkizinchi dars.

Mutamakkin ismlarning qolganlarini e'robi.

13. Ismi maqsura - oxirida alif maqsura bo'lgan ismdir. Masalan, موسى ، عصا kabi.

14. Jam muzakkar solimdan boshqa, mutakalkim ي ga izofa qilingan so'zlar. Masalan, غلامي kabi.

Bu ikki qismga raf holida zammani, nasb holida fathani va jar holida kasrani taqdir qilinadi. Masalan, رآيت موسى و غلامي ، مررت بموسى و غلامي kabi.

15. Noqis ism - oxirida lozim ي kelib, undan oldingi harf kasrali bo'lgan ismdir. Masalan, القاضي kabi. Nasb holida fatha bilan, raf holida zammani va jar

holida kasrani taqdir qilish bilan e'roblanadi. Masalan, جاء القاضي ، رأيت القاضي و kabi. مررت بالقاضي

16. Mutakallim ي ga izofa qilingan jam muzakkar solim. Masalan, مسلمي kabi. Raf holida و ni taqdir qilish bilan, nasb va jar holida ي ni talaffuz qilish bilan e'roblanadi. Masalan, مررت بمسلمي ، رأيت مسلمي ، جاء مسلمي kabi.

Xulosa:

Aslida مسلمي so'zi raf holida مسلمون ي bo'lgan. Izofa sababli ن hazf bo'ladi. bo'lib qoldi. و bilan ي bir so'zda jamlanib, birinchisi sukunli bo'lgani uchun و ni ي ga aylantiriladi va سيد qoidasiga ko'ra ikkita ي ni bir biriga idg'om qilinadi va ي sababli zammani kasraga almashtiriladi. مسلمي bo'ladi.

Nasb va jar holidagi مسلمي so'zi aslida مسلمين ي bo'lgan. Izofa sababli ن hazf qilinadi va ikkita ي bir biriga idg'om qilinadi. مسلمي bo'ladi.

O'ttiz to'qqizinchi dars.

Muzori fe'lining e'robi va uning turlari.

E'robiga ko'ra muzori fe'li uchta holatda bo'ladi:

1. Raf holati.

Bu holatda muzori fe'li marfu' bo'ladi. Bu nasb va jazm qiluvchi omillardan xoli bo'lganda. Masalan, يضرب kabi.

2. Nasb holati.

Bu holatda muzori fe'li mansub bo'ladi. Bu nasb qiluvchi لن ، أن kabi so'zlar kelganda. Masalan, لن يضرب kabi.

3. Jazm holati.

Bu holatda muzori majzum bo'ladi. Bu jazm qiluvchi لم ، لما kabi so'zlar kelganda. Masalan, لم يضرب kabi.

Muzori fe'li e'robning turiga qarab to'rt qism bo'ladi:

1. Marfu bo'lgan zohir zamirdan xoli sahif muzori - oxirida illat xarfi bo'lmagan muzori bo'lib, tasniya, muzakkar jami (g'oib yoki muxotab bo'lsa-da) va muxotabning muannas birligi uchun bo'lgan marfu bo'lgan zohir zamirdan xoli

bo'ladi. Masalan, يضرب kabi. Raf holida zamma bilan, nasb holida fatha bilan va jazm holida sukun bilan e'roblanadi. Masalan, لم يسمع ، لن يسمع ، هو يسمع kabi.

2. Mufrad bo'lib, ي va و bilan illatlangan muzori - oxirida illatli harflardan و yoki ي bo'lib, marfu bo'lgan zohir zamirdan xoli bo'ladi. Masalan, يدعو ، يرمي kabi. Raf holida zamma taqdir qilish bilan, nasb holida fathani talaffuz qilish bilan va jazm holida ل barobaridagi harfni hazf qilish bilan e'roblanadi. Masalan, هو يغزو و لم يغزو و لم يرمي ، لن يغزو و يرمي kabi.

Qirqinchi dars.

Muzorining qolgan turlari.

3. Mufrad bo'lib, ا bilan illatli bo'lgan muzori - oxirida illat harflaridan ا bo'lib, marfu bo'lgan zohir zamirdan xoli muzoridir. Raf holida zammani taqdir qilib, nasb holida fathani taqdir qilib va jazm holida ل barobaridagi harfni hazf qilib e'roblanadi. Masalan, لم يرضى ، لن يرضى ، هو يرضى kabi.

4. Marfu bo'lgan zohir zamirlar bilan qo'shilib kelgan illatli yoki sahih muzori - sahih yoki illatli muzori bo'lib, oxirida tasniya, muzakkar g'oib va hozirning jami va muxotaba mufradi uchun marfu bo'lgan zohir zamirlardan biri qo'shilib keladi. Masalan, يضربان ، يضربون ، تضربين kabi. Raf holida ن sobit turishi, nasb va jar holida ن hazf bo'lishi bilan e'roblanadi. Tasniyaning raf holati uchun misol: يضريان ، يرميان ، يغزوان ، kabi.

Jam uchun misol: يضرون ، يرمون ، يغزون ، هم يضربون kabi.

Muxotabaning raf holiday mufradiga misol: أنت تضربين ، تغزين ، ترمين ، kabi.

Nasb va jazm holiday tasniya va jam uchun misol: لن يضربا ، لن يضربوا ، لن يغزوا ، لن يغزوا ، لن يرميا ، لن يرموا ، لن يرضيا ، لن يرضوا kabi.

لن يضربا ، لم يضربوا ، لم يغزوا ، لم يغزوا ، لم يرميا ، لم يرموا ، لم يرضيا ، لم يرضوا kabi.

Muxotabaning nasb va jazm holiday mufradi uchun misol: لن تضربي ، لن تغزي ، لن ترمي ، لن ترضي. لم تضربي ، لم تغزي ، لم ترمي ، لم ترضي kabi.

Qirq birinchi dars.

Omil va uning turlari.

Omil ikki turli bo'ladi: lafziy va ma'naviy.

Lafziy omil - soʻzlash va yozishda zohir boʻladigan omil.

Maʼnaviy omil - talaffuzda boʻlmaydi, ammo aql bilan idrok qilinadigan omil.

Lafziy omillar uch qism boʻladi:

Harflar, feʼllar va ismlar.

Omil harflar ikki turli boʻladi:

1. Ismda amal qiluvchi harflar.
2. Feʼlda amal qiluvchi omillar.

Ismda amal qiluvchi omillar - ismga kirib, unda amal qiladigan harflardir. Ular beshtadir:

1. Jar harflari.
2. Feʼlga oʻxshash harflar. (Hurufum mushabbatum bilfeʼl).
3. ga "ليس" oʻxshagan ما va لا .
4. Jinsni nafi qiladigan لا.
5. Nido harflari.

Jar harflari - feʼlni yoki shibhi feʼlni yoki feʼl maʼnosidagini oʻzidan keyin keladigan ismga bogʻlash uchun tuzilgan harflardir.

Feʼlga misol: مررت بعامر.

Shibhi feʼlga misol: أنا مار بزيد.

Feʼl maʼnosidagiga misol: هذا في الدار أبوه.

Ular 17 harfdir: ب، ت، ك، ل، و القسم، مذ، منذ، خلا، حاشاء، عدا، رب، من، في، عن، على، حتى، إلى.

Bu harflar oʻzidan keyin kelgan ismni jar qiladi. Masalan, في الدار kabi

Qirq ikkinchi dars.

Fe'lga o'xshagan harflar (hurufum mushabbahatum bilfe'l) - lafzda, ma'noda va amalda muta'addiy fe'lga o'xshatilgan harflardir. Ular 6 tadir: أن، إن، لكن، ليت، لعل.

Bu harflar muftado va xabardan iborat ismiy jumlag kiradi va jumlag kirgach muftadoni "uning ismi" va xabarni "uning xabari" deyiladi, hamda ismini nasb va xabarini raf qiladi. Masalan, إن زيدا قائم kabi.

Bilginki, kasrali إن va fathali أن

tahqiq ya'ni jumlaning mazmunini sobit qilish uchun ishlatiladi.

كان

tashbih ya'ni ismni xabardagi mashhur narsaga xabarni o'xshatish uchun ishlatiladi.

لكن

avvalgi o'tgan so'zdagi tushunmovchilikni ketkazish uchun ishlatiladi.

ليت

Orzu uchun, ya'ni sevimli narsani ro'yobga chiqishiga rag'bati borligini izhor qilish uchun ishlatiladi

لعل

Umid uchun, ya'ni biror ishni voqi bo'lishini kutib turganini izhor qilish uchun ishlatiladi.

Qirq uchinchi dars.

'ليس ga o'xshatilgan ما va لا hamda jinsni nafy qilish uchun bo'lgan لا.

'ليس ga o'xshatilgan ما va لا - bu ikkisi nafyda va "muftado va xabar"ga kirishida ليس ga o'xshatiladi. U ikkisi ismini raf qiladi va xabarini nasb qiladi. Masalan, ما سعيد جاهلا و لا رجل أفضل منك kabi.

Xulosa:

'لا harfi omil bo'lishi uchun uning ismi nakra bo'lishi lozim bo'ladi.

Jinsni nafy qiladigan لا - jinsdan sifatni nafy qilish uchun tuzilgan harfdir va u ismini nasb va xabarini raf qiladi. Masalan, لا كتاب رجل جيد ، bu misoldaga لا kitob jinsidan yaxshilik sifatini nafy qilmoqda.

Bilginki, jinsni nafy qiladigan لا amaliga qarab 4 ko'rinishda bo'ladi:

1. Ism nakra bo'lib, muzof yoki muzofga o'xshash bo'lsa va u bilan لا o'rtasi ajratilmagan bo'lsa nasb holdagi mo'rab bo'ladi. Muzofga misol: لا غلام رجل ظريف في الدار.

Muzofga o'xshashga misol: لا طالعا جبلا غافل.

2. Ism mufrad nakra bo'lsa ya'ni muzof yoki muzofga o'xshash bo'lmasa va u bilan لا o'rtasi ajratilmagan bo'lsa fathaga mabniy bo'ladi. Masalan, لا رجل في الدار.

Qirq to'rtinchi dars.

Jins ismini nafy qilish uchun bo'lgan لا ning ismini qolgan ko'rinishlari.

3. Agar ma'rifa yoki nakra bo'lsa va u bilan لا ning o'rtasi ajratilgan bo'lsa marfu mo'rab bo'ladi. Bunday holatda لا mulg'ot bo'ladi ya'ni amalini bajarmaydi va ismi muftado bo'ladi hamda لا ni boshqa ism bilan takror keltirish lozim bo'ladi. Masalan, لا زيد عندي و لا عمرو ، لا في الدار رجل و لا امرأة kabi.

Xulosa:

Muzofga o'xshagan - muzof bo'lmagan ism bo'lib, undan keyin uning ma'nosini to'ldiradigan narsa bo'ladi, huddi muzofning ma'nosi muzofun ilayh bilan to'ldirilgani kabi. Masalan, لا قارئ jumlasidagi قارئ kabi.

Nasb qiluvchi sanoq ismlar ham "muzofga o'xshagan" bo'ladi.

4. Jinsni nafy qiladigan لا ning ismi mufrad nakra bo'lib, u bilan لا ning o'rtasi ajratilmagan bo'lsa va keyin kelgan boshqa mufrad nakra bilan لا ni o'rtasi ajratilmagan holda takror keltirilsa besh xil ko'rinish ham joiz bo'ladi. Masalan, لا حول ولا قوة إلا بالله kabi.

Beshta ko'rinish quyidagilar:

1. Ikkisi ham fathalik bo'ladi. لا حول ولا قوة إلا بالله. Bunda ikkala لا jinsni nafy qilish uchun bo'ladi va ikki o'rinda ham nakra so'z jinsni nafy qilish uchun bo'lgan لا ning ismi bo'ladi.

2. Ikkisi ham raf bo'ladi. لا حول ولا قوة إلا بالله. Bu holatda birinchi لا lag'v bo'ladi va ikkinchisi nafyni takidlash uchun zoida bo'ladi. Ikki ism ham muftado bo'lgani uchun marfu bo'ladi.

3. Birinchisi fathali va ikkinchisi raf bo'ladi. لا حول ولا قوة إلا بالله. Bunda birinchi nakra jinsni nafy qilish uchun bo'lgan لا ning ismi bo'ladi va ikkinchi ism birinchining o'rniga atf bo'ladi va ikkinchi لا nafyni takidlash uchun zoida bo'ladi.

4. Birinchisi fathali bo'lib, ikkinchisi mansub bo'ladi. لا حول ولا قوة إلا بالله. Bunda birinchi nakra jinsni nafy qiluvchi لا ga ism bo'ladi va ikkinchisi birinchining lafziga atf bo'ladi. Ikkinchi لا esa ta'kid uchun kelgan zoida bo'ladi.

5. Birinchisi raf va ikkinchisi fathali bo'ladi. لا حول ولا قوة إلا بالله kabi. Bunda birinchi nakra ليس ga o'xshatilgan لا ning ismi bo'lib, ikkinchisi jinsni nafy qiluvchi لا ning ismi bo'ladi.

Qirq beshinchi dars.

Nido harflari.

Nido harflari - birovni o'ziga yuzlanishini talab qilish uchun tuzilgan harflar bo'lib, ادعو so'zi o'rniga o'tadi. Bu harflar beshtadir:

١. (يا. ٢. أيا. ٣. هيا. ٤. أي. ٥. أ) الهمزة المفتوحة

Munodo - nido harflaridan biri bilan o'ziga yuzlanishni talab qilingan ismdir. Masalan, يا زيد jumlasidagi زيد kabi.

Bu beshta harf munodoni nasb qiladi, qachonki, u muzof bo'lsa. Masalan, يا عبدالله kabi. Yoki muzofga o'xshagan bo'lsa. Masalan, يا طالع اجلا kabi. Yoki nomuayyan nakra bo'lsa. Masalan, ko'zi ojiz kishi "يارجلا! خذ بيدي" degani kabi. Ammo, muftad bo'lsa ya'ni muzof yoki muzofga o'xshagan bo'lmasa yoki ma'rifa bo'lsa rafga mabniy bo'ladi. Masalan, يا زيد ، يا زيدان ، يا زيدون kabi.

1 - xulosa: rafning uchta alomati bor:

1. Zamma - munsarif bo'lgan sahih muftad, sahih yo'nalishidagi muftad, munsarif bo'lgan jam taksir, g'oyri munsarif va jam muannas solimlar uchun.

2. Alif harfi - tasniya va uning qatoriga qo'shilganlar uchun.

3. Vov harfi - jam muzakkar solim, uning qatoriga qo'shilganlar va tasg'ir qilinmagan olti ism uchun.

Nasbning alomati to'rttadir:

1. Fatha - munsarif bo'lgan sahih mufrad, sahih yo'nalishidagi mufrad, munsarif bo'lgan jam taksir, g'oyri munsarif va noqis ismlar uchun.
2. Alif harfi - tasg'ir qilinmagan olti ism uchun.
3. Yo harfi - tasniya, jam muzakkar solim va u ikkisi qatoriga qo'shilganlar uchun.
4. Kasra - jam muannas solim uchun.

Jarning uchta alomati bor:

1. Kasra - munsarif bo'lgan sahih mufrad, sahih yo'nalishidagi mufrad, munsarif bo'lgan jam taksir va jam muannas solim uchun.
2. Yo harfi - tasg'ir qilinmagan olti ism, tasniya, jam muzakkar solim va u ikkisi qatoriga qo'shilganlar uchun.
3. Fatha - g'oyri munsarif uchun.

2 - xulosa:

'أي va أ harflari yaqinga nido uchun, أيا va هيا uzoqqa nido uchun va يا ikkisi hamda o'rta nido uchun ishlatiladi.

Qirq oltinchi dars.

Fe'lda amal qiluvchi harflar.

Fe'lda amal qiluvchi harflar - fe'li muzoriga kirib, amal qiladigan harflardir. Ular ikki qism bo'ladi:

1. Nasb qiluvchi harflar.
2. Jazm qiluvchi harflar.

Nasb qiluvchi harflar - muzori fe'lini nasb qiluvchi harflar bo'lib, ular to'rttadir: أن ، لن ، إذن ، كي.

1 - Misol: أريد أن أقوم. Bu harf fe'lni masdar ma'nosida qiladi. Bu jumlaning ma'nosi "أريد قيامك" bo'ladi. Shuning uchun bu harfni "أن masdariya" deyiladi.

2 - Misol: لن يخرج عامر لن kabi va u kelasi zamondagi fe'lni nafy qilishning ta'kidi uchun keladi.

3 - Misol: كي أدخل الجنة kabi uchun va undan oldingisi keyingisiga sabab bo'ladi.

4 - Misol: إذن أكرمك إذن degan kishiga javob uchun. Bu harf jumlaning javobi uchun ishlatiladi.

Qirq yettinchi dars.

Nasb qiluvchi أن ni taqdirda kelishi o'rinlari.

Yetti harfdan keyin kelgan أن taqdirda bo'ladi va muzori fe'lini nasb qiladi:

1. Jar qiluvchi حتى dan keyin. Masalan, سرت حتى أدخل البلد kabi.

2. Jahd ل dan keyin.

"ما كان الله ليعذبهم" kabi.

Jahd ل - jar qiluvchi ل bo'lib, nafy qilingan كان ni ismiga kiradi.

3. لألزمك أو تعطيني حقى dan keyin. Masalan, حقى kabi.

Viqoya ن - kasrali zoida nun bo'lib, fe'l sababli, shibhi fe'l sababli, harf sababli yoki jar harfi hamda izofa sababli jar bo'lgan bilan kelgan mansub mutakallim ي dan oldin keladi va fe'lni kasradan, fe'ldan boshqasini oxiri o'zgarishidan himoya qiladi. Masalan, fe'l uchun misol: إني ، عليكني ، دركني ، ضربني kabi. Boshqalari uchun misol: لدني ، لدني kabi.

4. Sarf و dan keyin. Masalan, تشرب اللبن kabi.

Sarf و - zamirdagi أن bilan qo'shilib, fe'li muzorini nasb qiladigan و bo'lib, ochiq nahy yoki ochiq talabdan keyin keladi. Uni "و المعية" ham deyiladi.

5. "ل so'zining ل dan keyin. Masalan, أدخل الجنة kabi. "ل so'zining ل jar qiluvchi bo'lib, undan oldingisi keyingisiga sabab bo'ladi.

6. Oltita narsaning javobi uchun kelgan ف harfidan keyin.

1. Amrdan keyin. Masalan, فأكرمك kabi.

2. Nahydan keyin. Masalan, لا تشتمني فأهينك kabi.

3. Nafydan keyin. Masalan, ما تأتينا فتحدثنا kabi.
4. Istifhomdan keyin. Masalan, أين بيتك فأزورك kabi.
5. Tamanniydan keyin. Masalan, ليت لي مالا فأنفق منه kabi.
6. Arzdan keyin. Masalan, ألا تنزل بنا فتصيب خيرا kabi.

Qirq sakkizinchi dars.

Jazm qiluvchi harflar.

Jazm qiluvchi harflar - muzori fe'llarni jazm qiladigan harflardir. Ular beshtadir:

لم، لما، لام الأمر، لا الناهية، إن الشرطية

Bilginki, لم va لما muzori fe'lini nafy moziga aylantiradi. Masalan, لم يضرب ، لما يضرب.

Xulosa:

Amr ل - karsali ل bo'lib, fe'lda talab ma'nosini paydo qilish uchun tuzilgan. Masalan, ليضرب زيد kabi.

Nahy لا - bir ishni tark qilishni talabi uchun tuzilgandir. Masalan, لا تضرب kabi.

Shartiya إن - bu harf ikki jumlagacha kiradi va e'robda birinchisi "shart", ikkinchisi "jazo" deyiladi. Masalan, إن تضرب أضرب kabi. U moziy fe'lga kirsa ham fe'lni kelajakka xoslaydi. Masalan, إن ضربت ضربت kabi. Bu holatda jumla jazm o'rnida bo'ladi. Chunki, moziy fe'l mabniydir, mo'rab emas.

Xulosa:

Gohida jazoni ف bilan bog'lanadi va bu bir necha o'rinda bo'ladi:

1. Jazo jumlai ismiya bo'lsa. Masalan, إن تأتني فأنت مكرم kabi.
2. Jazo amr sirg'asida bo'lsa. Masalan, إن رأيت زيدا فأكرمه kabi.
3. Jazo nahiy siyg'asida bo'lsa. Masalan, إن أتاك عمرو فلا تهنه kabi.
4. Duo'iy jumla bo'lsa. Masalan, إن أكرمتني فجزاك الله خيرا kabi.

Qirq to'qqizinchi dars.

Marfuotlar, mansubotlar, majrurotlar, fe'lining qismlari va uning amali.

Ismlarning marfuotlari sakkiztadir: fo'il, noibi fo'il, mu'tado, xabar, "hurufu mushabbahatu bil fe'l"ning ismi, noqisa fe'llarning xabari, ليس ga o'xshagan ما va لا ning ismi va jinsni nafy qiluvchi لا ning xabari.

Ismlarning mansubotlari o'n ikkitadir: maf'ulu bih, maf'ulu mutlaq, maf'ulu lah, maf'ulu ma'ah, maf'ulu fih, hol, tamyiz, "hurufu mushabbahatu bil fe'l"ning ismi, noqisa fe'llarning xabari, jinsni nafy qiluvchi لا ning ismi, ليس ga o'xshagan ما va لا ning xabari va mustasno.

Mahrurlar ikkitadir: muzofi ilayh va jar harfi kirgan ism.

Fe'l ikki qism bo'ladi: noqis va tom.

Noqis fe'l - fo'il bo'lgan marfu'i bilan tamom bo'lmay, balki u bilan birga sifati ya'ni xabarini ham zikr qilish kerak bo'lgan fe'ldir. Masalan, كان va uning sheriklari.

Tom fe'l - fo'il yoki noibi fo'il bo'lgan marfu'i bilan tamom bo'lib, sifati ya'ni xabarini zikr qilish kerak bo'lmagan fe'ldir. Masalan, خرج ، نصر va hokazo.

Bilginki, har bir fe'l omil bo'ladi va amaliga qarab ikki qism bo'ladi: ma'lum va majhul.

Ma'lum fe'l - fo'iliga isnod qilingan fe'ldir, ya'ni u bilan fo'ili zikr qilinadi. Masalan, ضرب زيد jumlasidagi زيد kabi.

Majhul fe'l - noibi fo'iliga isnod qilingan fe'ldir, ya'ni u bilan fo'ili zikr qilinmaydi va fo'ilning o'rniga boshqasi noib bo'ladi. Masalan, ضرب زيد و جلس ضرب أمامك jumlasidagi جلس va ضرب kabi.

Ma'ruf fe'l agar "lozim" bo'lsa o'zining fo'ilini raf qiladi. Masalan, قعد عمر kabi va yetti narsani nasb qiladi: maf'uli mutlaqni, maf'ulu lahuni, maf'uli ma'ahuni, maf'uli fihini, holni, tamyizni va mustasnoni.

Ammo agar "muta'addiy" bo'lsa o'zining fo'ilini raf qiladi, masalan, ضرب زيد kabi va sakkiz narsani nasb qiladi: maf'uli bihini, maf'uli mutlaqni, maf'uli lahuni, maf'uli ma'ahuni maf'uli fihini, holni, tamyizni va mustasnoni.

Elliginchi dars.

Fe'lining qolgan turlari, fo'il, maf'ulu bihi va mutlaq.

Lozim fe'l - fo'ilining o'zi bilan tamom bo'lib, maf'ulu bihni zikr qilish kerak bo'lmagan fe'ldir. Masalan, ذهب زيد jumlasidagi ذهب kabi.

Muta'addiy fe'l - fo'ilni o'zi bilan tamom bo'lmagan, balki, o'zi bilan maf'ulu bih kerak bo'lgan fe'ldir. Masalan, فتح فتح سليمان الباب kabi.

Fo'il - o'zidan oldin fe'l yoki shibhi fe'l kelib, unga isnod qilingan ism bo'lib, u fe'lni qoim qilgan ma'nosida bo'ladi, fe'l unga voqi bo'lgan emas.

Fe'lga misol: قام زيد. Bunda قام fe'lining fo'ili زيد bo'ladi.

Shibhi fe'lga misol: زيد ضارب أبوه عمرا. Bunda ضارب fo'ilining ismi uchun أبوه fo'il bo'ladi. U (ضارب) shibhi fe'ldir.

Maf'ulu bih - unga fo'ilning fe'li voqi bo'lgan ismdir. Masalan, ضرب عمرو زيدا jumlasidagi زيدا kabi.

Maf'ulu mutlaq - o'zidan oldin o'tgan fe'lining yoki shibhi fe'lining manosidagi masdardir. Masalan, قعدت قعودا، جلست قعودا، أنا قاعد قعودا jumlaridagi قعودا kabi.

Ellik birinchi dars.

Maf'ulu fihi, lahu va ma'ahu.

Maf'ulu fihi - fo'ilning fe'li bajarilgan joy yoki zamonning ismidir. Masalan, صمت يوم الجمعة jumlasidagi يوم الجمعة va جلست خلفك jumlasidagi خلفك kabi va "Zarf" deyiladi.

Zarfi zamon ikki xil bo'ladi: mubham va mahdud.

Mubham zarfi zamon - muayyan chegarasi bo'lmagan vaqtga dalolat qilgan ismdir. Masalan, حين kabi.

Mahdud zarfi zamon - muayyan chegarasi bo'lgan vaqtga dalolat qilgan ismdir. Masalan, ليل kabi.

Zarfi makon ham ikki xil bo'ladi:

Mubham va mahdud.

Mubham zarfi makon - muayyan chegarasi bo'lmagan joyga dalolat qilgan ismdir. Masalan, خلف kabi.

Mahdud zarfi makon - muayyan chegarasi bo'lgan joyga dalolat qilgan ismdir. Masalan, مسجد kabi.

Maf'ulu lahu - zikr qilingan fe'l u sababli bajarilgan masdar ismdir. Masalan, إكراما لزيد jumlasidagi kabi.

Maf'ulu ma'ahu - fe'lning ma'muli bilan birga bo'lgani uchun مع ma'nosidagi و dan keyin zikr qilingan ismdir. Masalan, جاء البرد و الجبات jumlasidagi الجبات kabi. Bu jumlaning ma'nosi جاء البرد مع الجبات bo'ladi.

Ellik ikkinchi dars.

Hol va tamyiz.

Hol - nakra ism bo'lib, fo'ildan fe'l sodir bo'lgan vaqtda fo'ilning holatini yoki fe'l maf'ulning ustiga voqi bo'lgan vaqtda maf'ulning holatini yoki ikkisini ham holatini bayon qilib keladi.

Fo'ilning holi uchun misol: جاءني زيد راكبا kabi.

Maf'ulning holi uchun misol: ضربت زيدا مشدودا kabi.

Fo'il va maf'ulning har ikkisining holi uchun misol: لقيت عمرا راكبين kabi.

Hol egasi - holati bayon qilingan fo'il yoki maf'uldir. Masalan, جاء زيد راكبا va ضربت زيدا مشدودا jumlaridagi زيد kabi.

Xulosa:

Hol doimo nakra bo'lib keladi va hol egasi esa ko'pincha ma'rifa bo'ladi. Agarda nakra bo'lsa undan oldin holni zikr qilish lozim bo'ladi. Masalan, جاءني راكبا رجل kabi.

Gohida hol xabariy jumla bo'lib keladi. Masalan, رأيت الأمير و هو راكب kabi.

Tamyiz - nakra ism bo'lib, adad, o'lchov, vazn, masofa, qiyos va nisbatdan mubhamlikni ketkazadi.

Adad uchun misol: عندي أحد عشر درهما kabi.

O'lchov uchun misol: عندي قفيزان برا kabi.

Vazn uchun misol: عندي رطل زيتا

Masofa uchun misol: ما في السماء قدر راحة سحابا

Nisbat uchun misol: طاب زيد نفسا

Mumayyaz - undan mubhamlik ketkazilgan ismdir. Masalan, عندي رطل زيتا jumlasidagi رطل kabi.

Ellik uchinchi dars.

Fo'ilning turlari va uning hukmlari.

Har bir fe'lning fo'ili bo'lishi lozim va fo'il ikki xil bo'ladi:

1. Zohir ism. Masalan, سمع زيد jumlasidagi زيد kabi.

2. Zamir va u ham ikki xil bo'ladi:

Zamiri mustatir. Masalan, هو zamiri jumlasidagi سمع زيد kabi.

Zamiri boriz. Masalan, ضربت زيدا jumlasidagi ت zamiri kabi.

Xulosa:

Fo'ilning fe'li gohida muzakkar va gohida muannas bo'ladi. Ikki o'rinda fo'ilning fe'li muannas bo'lishi lozim bo'ladi:

1. Fo'il zohir ism bo'lib, haqiqiy muannas bo'lsa va u bilan fe'l o'rtasi ajralmasa. Masalan, قامت هند kabi.

2. Fo'il muannasga qaytadigan mustatir zamir bo'lsa. Masalan, هند قامت va نزلت الرحمة kabi.

Ikki o'rinda ham muannas va ham muzakkar bo'lishi joiz bo'ladi:

1. Fo'il zohir ism bo'lib, haqiqiy bo'lmagan muannas bo'lsa. Masalan, طلعت الشمس va الشمس kabi

2. Fo'il zohir ism bo'lib, jam taksir bo'lsa. Masalan, قال الرجال ، قالت الرجال kabi.

Majhul fe'lning amali: u fo'ilning o'rniga maf'ulu bihni raf qiladi va maf'ulu mutlaqni, maf'ulu lahuni, maf'ulu ma'ahuni, maf'ulu fihini, holni, tamyizni va mustasnoni nasb qiladi. Bu holat agar fe'l majhul bo'lishidan oldin bitta maf'ulu

buhlik muta'addiy bo'lgan bo'ladi. Agar ikki yoki uchta maf'ulga muta'addiy bo'lgan bo'lsa, ikkitalikda bitta maf'ulni, uchtalikda ikkita maf'ulni nasb qiladi. Majhul fe'lni "fo'ili zikr qilinmagan fe'l" deyiladi va uning marfu'ini "noibi fo'il" deb ataladi. Masalan, ضرب زيد يوم الجمعة أمام الأمير ضرباً شديداً في داره تأديباً و الخشبة kabi.

Noibi fo'il - fo'ili hazf qilinib, uning o'rniga qo'yilgan maf'uldir. Masalan, نصر عابد kabi. Uning fe'li muzakkar yoki muannas bo'lish hukmi fo'il kabidir.

Ellik to'rtinchi dars.

Muta'addiy felining turlari.

Muta'addiy fe'l to'rt xil bo'ladi:

1. Bitta maf'ulu bihga muta'addiy bo'lgan fe'l. ضرب زيد عمراً jumlasidagi ضرب kabi

2. Ikki maf'ullik muta'addiy bo'lib, bunda ikki maf'uldan biri bilan kifoyalansa ham bo'ladi, agar birinchi maf'ul ikkinchi maf'uldan boshqa bo'lgan fe'l bo'lsa. Masalan, أعطيت زيدا درهما أعطى ، سأل ، منح ، كسا ، ألبس va boshqa fe'llar. أعطيت زيدا درهما deysiz va bu yerda أعطيت زيدا yoki أعطيت درهما desa ham bo'ladi.

3. Ikki maf'ullik muta'addiy bo'lib, ikki maf'uldan biri bilan kifoyalanib bo'lmaydi. (Balki ikkisini ham zikr qilish kerak yoki biror dalil uchun ikkisini ham hazf qilish kerak). Bu holat ikkinchi maf'ul birinchi maf'ulning ayni o'zi bo'lgan fe'llarda bo'ladi. Masalan, علمت زيدا فاضلاً va علم ، رأى kabi.

Qalb fe'llari - qalbgaga taalluqli fe'llar bo'lib, ular yettitadir: علمت ، رأيت ، . Bu fe'llar muftado va xabarga kirib, maf'ulligi uchun ikkisini ham nasb qiladi. Masalan, علمت زيدا فاضلاً kabi.

4. Uchta maf'ullik muta'addiy fe'l. Masalan, أعلم ، أرى ، أنبأ ، أخبر ، خبر ، حدث kabi. أعلم الله زيدا عمراً فاضلاً deysiz.

Xulosa:

Bilginki, ikkisidan biri bilan kifoyalanish joiz bo'lmagan ikki maf'ullik muta'addiy fe'lining ikkinchi maf'uli, uchta maf'ullik muta'addiyning uchinchi maf'uli, maf'ulu lahu va maf'ulu ma'ahuni fo'il o'rniga noib qilish joiz emas. Ammo boshqa maf'ullarni fo'il o'rniga noib qilish joiz bo'ladi. Ikkisidan biri bilan

kifoyalanish joiz bo'lgan ikkita maf'ullik muta'addiy fe'lning birinchi maf'ulini noib qilish ikkinchisidan ko'ra yaxshiroqdir.

Ellik beshinchi dars.

Noqisa fe'llar.

Noqisa fe'llar - fo'ilni fe'lning masdarini sifatidan boshqa sifatga qaror toptirish uchun tuzilgan fe'llardir. Masalan, **كان زيد قائما** jumlasida fo'il bo'lgan **زيد** ni masdardagi sifatdan boshqa bo'lmish **القيام** sifatiga qaror toptirdi.

Ular o'n yettita fe'llardir:

كان ، صار ، أصبح ، أمسى ، أضحى ، ظل ، بات ، عاد ، أض ، غدا ، راح ، ما زال ، ما انفك ، ما برح ، ما فتئ ، ما دام ، ليس .

Bu fe'llar muftado va xabardan iborat jumlai ismiyaga kiradi. Shunda muftado uning ismi va xabar esa uning xabari deyiladi va ismini raf hamda xabarini nasb qiladi. Masalan, **كان زيد قائما** kabi.

1 - xulosa:

Bu fe'llar noqisa deb nomlanadi, chunki, bularning fo'ilini zikr qilish bilan ma'no tamom bo'lmaydi. Balki fo'ilning xabari ya'ni sifatini ham zikr qilish lozim bo'ladi. Tom fe'llarda esa bunday emas. Ularning fo'ilini zikr qilish bilan ma'no tamom bo'ladi. Shu tomondan bu fe'llarning tom fe'llardan noqisligi bor.

2 - xulosa:

Gohida bu fe'llarning ba'zisi fo'il bilan tamom bo'lib, xabar kerak bo'lmasligi mumkin. Bunday holda uni "tom fe'l" deyiladi. Masalan, **كان مطرو** jumlasida **كان** bilan **أصبح** tom fe'l bo'lib, **مطر** bilan **زيد** fo'ili bo'ladi.

3 - xulosa:

Gohida **كان** zoida bo'lib keladi va uni hazf qilish bilan ma'no o'zgarmaydi. Masalan, **ما كان أصح علم المتقدمين** kabi

Ellik oltinchi dars.

Muqoraba fe'llar.

Muqoraba fe'llar - xabarni fo'iliga yaqinligiga dalolat qilish uchun tuzilgan fe'llardir. Masalan, **عسى زيد أن يخرج** kabi. Ular to'rtttadir: **عسى ، كاد ، كرب ، أوشك**. Bu

fe'llar jumlai ismiyaga kiradi va ismini raf hamda xabarini nasb qiladi va xabari muzori fe'li bo'lib, gohida أن bilan birga keladi. Masalan عسى زيد أن يخرج. Ba'zida أن bilan birga bo'lmagan holda ham keladi. Masalan, عسى زيد يخرج kabi.

Bu fe'llar uchta ma'no uchun ishlatiladi:

1. Umid uchun, ya'ni xabarni fo'ilga sobit bo'lishini umid qilishga dalolat qilishi uchun. Bu عسى fe'li. Masalan, عسى زيد أن يخرج kabi.

2. Ishonch uchun, ya'ni xabarni fo'ilga sobit bo'lishining yaqinligi aniq ekanligiga dalolat qilishi uchun. Bu كاد fe'li. Masalan, كاد القطار يتأخر kabi.

3. Fe'lga kirishish uchun, ya'ni fo'il fe'lni boshlaganligiga dalolat qilish uchun. Bu كرب زيد يكتب و أوشك زيد أن يقرأ kabi. Masalan, كرب زيد يكتب و أوشك زيد أن يقرأ kabi.

'عسى fe'li ikki xil bo'ladi:

1. Noqisa عسى - fo'il bilan birga xabar kerak bo'ladigan fe'l.

2. Tom عسى - fo'il bilan birga xabar kerak bo'lmagan fe'l. Uning alomati: أن bilan birga bo'lgan muzori fe'li o'rtasi ajralmagan holda undan keyin keladi va masdar deb ta'vil qilingandan keyingilar عسى uchun fo'il bo'ladi. Masalan, عسى أن يخرج زيد kabi.

Huddi عسى kabi أوشك ham tom va noqis bo'ladi.

Ellik yettinchi dars.

Maqtov va yomonlash fe'llari va ta'ajjub fe'llar.

Maqtov va yomonlash fe'llari - maqtov va yomonlashni yaratish uchun tuzilgan fe'llardir. Masalan, نعم الرجل زيد kabi.

Ular to'rttadir:

Maqtov uchun حبذا va نعم.

Yomonlash uchun بئس va ساء.

Ko'pincha fo'ilidan keyin keladigan, maqtov yoki yomonlash maqsad qilingan ism "maqtovga yoki yomonlashga xoslangan" deyiladi.

1 - xulosa:

ال bilan ma'rifa bo'lgan ismi jins bo'lishi. Masalan, نعم الرجل زيد kabi

Yoki ال bilan ma'rifa bo'lgan ismga muzof bo'lishi. Masalan, بئس سيد القوم زيد kabi

Yoki nasb bo'lgan nakra bilan tamyiz qilingan mustatir zamir bo'lishi. Masalan, نعم رجال زيد kabi. Ammo حب ning fo'ili doimo ذا bo'ladi. Masalan, حبذا زيد kabi.

2 - xulosa:

Maqtov yoki yomonlashga xoslangan ism gohida unga ishora qiluvchi dalil bo'lsa hazf qilinadi. Masalan, (نعم العبد) (أيوب) kabi.

Taajjub fe'li - ajablanganligini bildirish uchun tuzilgan fe'ldir. Uni sulosiy mujarraddan ikkita siyg'asi bor:

1. ما أفعل' - bu so'zdan keyin kelgan ism maf'ul bo'lgani uchun nasb qilinadi. Masalan, ما أحسن زيدا kabi

2. أفعل به'. so'ziga qo'shilib kelgan ism talaffuzda majrur bo'ladi va raf o'rnida bo'ladi. Masalan, أحسن بزيدا kabi.

Ellik sakkizinchi dars.

Omil ismlar.

Omil ismlar o'n ikki xil bo'ladi:

'إن ma'nosidagi shartiya ismlar.

Moziy ma'nosidagi fe'l ismlar.

Amri hozir ma'nosidagi fe'l ismlar.

Fo'il ismlar.

Maf'ul ismlar.

Sifati mushabbaha.

Ismi tafzil.

Masdar.

Muzof ismi.

Tom ism.

Sanoqning kinoya ismlari.

1. 'إن ma'nosidagi shartiya ismlar - ikki jumla oldida keladigan ismlar bo'lib, إن الشرطية kabi muzori fe'lini jazm qiladi. E'robdan birinchi jumla "shart", ikkinchi jumla "jazo" deyiladi. Bular to'qqiztadir: من ، ما ، أين ، متى ، أي ، أنى ، إذما ، حيثما ، مهما

Masalan, من تضرب أضرب ، ما تفعل أفعل ، أين تجلس أجلس ، متى تقم أقم ، أي شيء ، kabi. تكتب أكتب ، أنى تكتب أكتب ، إذما تسافر أسافر ، حيثما تقصد أقصد ، مهما تقعد أقعد

Ellik to'qqizinchi dars.

Fe'l ismlar va fo'il ism.

Amri hozir ma'nosidagi ismi fe'llar - o'zidan keyin kelgan ismni maf'ul bo'lgani uchun nasb qiladi. Masalan, رويدا زيда kabi.

Moziy fe'li ma'nosidagi ismi fe'llar - o'zidan keyin kelgan ismni fo'illigi uchun raf qiladi. Masalan, هيهات زيد kabi.

Fo'il ismi - masdardan olinib, masdarning ma'nosi u bilan hudus ya'ni uchta zamondan birida qoim bo'lgan zotga dalolat qilgan ismdir. Masalan, ضارب kabi.

U ma'ruf fe'lning amalini bajaradi ya'ni fo'ilni raf qiladi va maf'ulu mutlaqni, maf'ulu lahuni, maf'ulu ma'ahuni, maf'ulu fihini, holni, tamyizni va mustasnoni nasb qiladi. Bu lozim fe'llarda bo'ladi. Ammo muta'addiy fe'li fo'ilni raf qiladi va maf'ulu bihini, to'rtta maf'ulni, holni, tamyizni va mustasnoni nasb qiladi.

Oltmishinchi dars.

Ismi fo'ilning amal bajarishi shartlari.

Mavsula bo'lgan ال dan yolg'iz kelgan ismi fo'il zohir fo'il va maf'ulda amal qilishi uchun ikki shart bo'lishi lozim:

1. Hozirgi yoki kelasi zamon ma'nosida bo'lishi lozim.

2. Quyidagi beshta ishdan biriga suyangan bo'lishi lozim:

1. Muftadoga. Lozim ismi fo'il uchun misol: زيد قائم أبوه kabi. Muta'addiy ismi fo'ilga misol: زيد ضارب أبوه عمرا kabi.

2. Mavsufga. Masalan, مررت برجل ضارب أبوه عمرا kabi.

3. Hol egasiga. Masalan, جاءني زيد راكبا غلامه فرسا kabi

4. Istifhomga. Masalan, أضرارب زيد عمرا kabi.

5. Nafy harfiga. Masalan, ما قائم زيد kabi.

Bu misollardagi قائم و ضارب so'zlari قام و ضرب kabi amal qiladi. ال qo'shimchasi bilan bo'lgani esa hamma zamonda amal qilaveradi va uning uchun hozir yoki kelasi zamon bo'lishi shart emas. Masalan, جاءني الضارب أبوه عمرا الآن أو غدأ أو أمس kabi.

Xulosa:

Agar ال qo'shimchasi bo'lmagan ismi fo'il moziy ma'nosida bo'lsa zohir fo'il va maf'ulu bihida amal bajarmaydi. Bunday holatda uni o'zidan keyin kelgan va aslida maf'uli bo'lgan ismga ma'naviy izofa qilish lozim bo'ladi. Masalan, زيد ضارب عمرو أمس kabi.

Oltmish birinchi dars

Ismi maf'ul va sifati mushabbaha.

Ismi maf'ul - masdardan olinib, fe'l uning ustiga tushgan zotga dalolat qiladigan ismdir. Masalan, مضروب kabi.

U majhul fe'lning amalini bajaradi, ya'ni noibi fo'ilni raf qiladi va maf'ulu mutlaqni, maf'ulu lahuni, maf'ulu ma'ahuni, maf'ulu fihini, holni, tamyizni va mustasnoni nasb qiladi. Bu - agar - uning fe'li majhul bo'lishidan avval bitta maf'ulga muta'addiy bo'lgan bo'lsa shunday bo'ladi. Ammo ikkita yoki uchta maf'ulga muta'addiy bo'lgan bo'lsa maf'ulu bihidan qolganini nasb qiladi. Bu qolgani ikkitalikda bitta va uchtalikda ikkita bo'ladi. Ismi maf'ulning amal qilish shartlari ismi fo'ilning shartlari kabidir. Masalan, زيد مضروب أبوه ، عمرو معطى غلامه ، خالد مخبر ابنه عمرا فاضلا ، بكر معلوم ابنه فاضلا ، درهما ، علم ، أعطي ، ضرب kabi amal bajaradi.

Sifati mushabbaha - masdardan olingan bo'lib, masdarning ma'nosi subutda ya'ni uchta zamonda u bilan qoim bo'lgan zotga dalolat qilgan ismdir. Masalan, حسن kabi.

U lozim fe'lining amalini bajaradi, ya'ni fo'ilini raf qiladi va maf'ulga o'xshaganni, maf'ulu mutlaqni, maf'ulu fihini, maf'ulu lahuni, holni va tamyizni nasb qiladi. Uning amal qilishi uchun mavsula ال dan boshqa beshta ish shart qilinadi. Ular muftado, mavsuf, hol egasi, istifhom va nafy harfi. Masalan, زيد حسن غلامه kabi.

Oltmish ikkinchi dars.

Ismi tafzil va masdar.

Ismi tafzil - masdardan olingan bo'lib, masdardagi ma'nodan ziyodaroq sifatga ega bo'lgan zotga dalolat qiladigan ismdir. Masalan, أضرب و أشهر kabi.

U fo'ilni raf qiladi va maf'uli fihini, holni va tamyizni nasb qiladi. Masalan, زيد أحسن منك اليوم راكبا و أنا أكثر منك مالا kabi. Uning fo'ili ko'pincha zamiri mustatir bo'ladi.

Ismi tafzil uchta ko'rinishda ishlatiladi:

1. 'من' bilan birga. Masalan, زيد أفضل من عمرو kabi. Bu holatda doim muzakkar mufrad bo'lishi lozim bo'ladi. زينب أفضل من فاطمة kabi.

2. 'ال' bilan birga. Masalan, زيد الأفضل عالم kabi. Bu holatda o'z navsufiga mufradlik, tasniyalik, jamlik, muannaslik va muzakkarlikda mos kelishi lozim bo'ladi. Masalan, جاءني الزيدان الأفضلان و الزيدون الأفضلون و جاءتني فاطمة الفضلى و جاءني الزيدان الأفضلان و الزيدون الأفضلون و جاءتني فاطمة الفضلى و الفاطمتان الفضليان و الفاطمات الفضل kabi.

3. Muzof bo'lishi. Masalan, زيد أفضل القوم kabi. Bu holatda o'z mavsufiga mos kelsa ham va kelmasa ham ya'ni doim mufrad va muzakkar bo'lsa ham joiz bo'laveradi. Masalan, جاءني الزيدان أفضل القوم و أفضل القوم و الزيدون أفضل القوم و أفضل kabi. جاءني القوم و جاءتني الهندان فضليا النساء و أفضل النساء و الهندات فضل النساء و أفضل النساء kabi.

Masdar - hadasga ya'ni boshqalar bilan qoim bo'lishga dalolat qilgan ism bo'lib, undan fe'l va boshqa narsalar chiqarib olinadi. Masalan, ضرب kabi.

U fe'l amalini bajaradi va fe'l amalini bajarishi uchun maf'ulu mutlaq bo'lmasligi shart bo'ladi. Masalan, أعجبنى ضرب زيد عمرا و أعجبنى قيام زيد kabi. Bu yerda قام و ضرب huddi قيام و ضرب amalini bajaradi.

Oltmish uchinchi dars.

Muzof ismi.

Muzof ismi (avval bu haqda aytib o'tdik) muzof ilayhni majrur qiladi. Masalan, جاء غلام زيد kabi. Bu misolda muzof bo'lgan غلام so'zi muzofi ilayh bo'lgan زيد so'zini majrur qildi.

Xulosa:

Bilginki, muzofi ilayhdan oldin jar qiluvchi harfni taqdir qilinadi. Agar muzofi ilayh muzofning jinsi bo'lsa, u harf من bo'lishi mumkin. Masalan, خاتم فضة kabi. Aslida خاتم من فضة bo'lgan. Bu izofani "bayoniy izofa" deyiladi. Agar muzofi ilayh muzof uchun zarf bo'lsa, u harf في bo'lishi mumkin. Masalan, صلاة الليل kabi. Aslida صلاة في الليل bo'lgan. Bu izofani "zarfiy izofa" deyiladi. Agar muzofu ilayh muzofning jinsi yoki zarfi bo'lmasa, u harf ل bo'lishi mumkin. Masalan, غلام زيد kabi. Aslida غلام لزيد bo'lgan. Bu izofani "lomlik izofa" deyiladi.

Oltmish to'rtinchi dars.

Tom ism.

Tom ism - uning oxirida uni boshqa bilan izofa bo'lishiga to'siq bo'ladigan narsasi bor ismdir. Masalan, رطل عندي رطل زيتا kabi.

U mufradning tamyizini nasb qiladi. Ism beshta narsadan biri bilan tom bo'ladi:

1. Tanvin bilan. Masalan, رطل عندي رطل زيتا kabi.

2. Taqdirdagi tanvin bilan. Masalan, أحد عشر عندي أحد عشر رجلا kabi. Uning asli أحد عشر bo'lgan va yana كم رجلا عندك kabi. Bu yerda كم so'zi aslida كم bo'lgan. Bu jumlaning ikkinchi bo'lagi bo'lmish (كم و عشر) so'zi taqdirdagi tanvin bilan tom ism bo'ladi.

3. Tasniya bilan. Masalan, قفيزان عندي قفيزان برا kabi.

4. Jamdagi ن ga o'xshagan ن bilan. Masalan, عشرون درهما عندي عشرون kabi.

5. Izofa bilan. Masalan, ملو عندي ملو عسلا kabi.

Oltmish beshinchi dars.

Sanoqning kinoya ismlari.

Sanoqning kinoya ismlari ikkita: **كم وكذا** bo'lib, mubham sanoq uchun ishlatiladi va tamyizni nasb qiladi. Masalan, **كم درهما عندك؟ كذا درهما عندي** kabi. Bu jumladagi **كم** e'robda "mumayyiz" va keyin kelgani "tamyiz" deyiladi.

1 - xulosa:

'**كم** so'zi ikki xil bo'ladi: istifhomiya va xabariya. Istifhomiya bo'lgan **كم** ning tamyizi nasb qilingan mufrad bo'ladi. Masalan, **كم رجلا عندك؟** kabi. Xabariy bo'lgan **كم** ning tamyizi jam ma'nosidagi majrur bo'ladi. Masalan, **كم رجلا عندي** kabi. Yoki jar qilingan mufrad bo'ladi. Masalan, **كم مال أنفقت** kabi.

2 - xulosa:

Istifhomiya va xabariy **كم** tamyiziga jar qiluvchi bo'lgan **من** harfi zoida bo'lib keladi. Xabariy uchun misol: **كم من ملك في السماوات** kabi.

Istifhomiya uchun misol: **كم أتيناهم من آية بينة** kabi.

3 - xulosa:

Xabar uchun ishlatiladigan **كذا** so'zi ham xabariy **كم** kabi bo'ladi va **كذا** ning tamyizi Basraliklar nazdida nasb bo'lishi lozim bo'ladi. Masalan, **كذا ثوبا في المتجر** kabi.

Oltmish oltinchi dars.

Ma'naviy omil.

Ma'naviy omil - talaffuzda bo'lmagan omildir. U ikki xil bo'ladi:

1. Mubtadolik - musnad yoki musnadi ilayh bo'lishi uchun ismning lafziy omillardan xoli bo'lishidir va u mubtado bilan xabarni raf qiladi. Masalan, **زيد عالم** kabi. Bu misolda ma'naviy omil bo'lmish "mubtadolik" mubtado (**زيد**) va xabar (**عالم**)ni raf qildi. Bu to'g'risida yana ikki xil fikr bor:

Birinchi fikr: mubtadolik mubtadoga omil bo'ladi va mubtado xabarga omil bo'ladi.

Ikkinchi fikr: mubtado va xabarning har biri bir biriga omil bo'ladi.

Mubtado - musnadi ilayh holida lafziy omildan xoli ismdir.

Xabar - musnad holida lafziy omildan xoli ismdir.

2. Muzori fe'lini nasb va jazm qiluvchi omillardan xoli bo'lishidir. U muzori fe'lini raf qiladi. Masalan, يضرب kabi.

Oltmish yettinchi dars.

Tobe va uning turlari.

Tobe - o'zidan oldin kelgan narsaga e'robida bitta jihatdan muvofiq kelgan ikkinchi ismdir.

Matbu - e'robda tobe unga muvofiq kelgan lafzdir.

Tobe besh xil bo'ladi: na't, ta'kid, badal, harf bilan atf bo'lgan va atfi bayon.

Na't - matbu yoki matbuning mutaallig'idagi ma'noga dalolat qiladigan tobedir. Birinchisiga misol: جاءني رجل عالم va ikkinchisiga misol: جاءني رجل عالم أبوه.

E'robda matbuni "mavsuf" va tobeni "sifat" deyiladi.

Sifat ikki xil bo'ladi: mavsufning holi uchun sifat va mavsufning mutaallig'ini holi uchun sifat.

Mavsufning holi uchun sifat - o'zining mavsufidagi ma'noga dalolat qilgan sifatdir. Masalan, جاءني رجل عالم kabi. Bu misoldagi عالم so'zi sifat bo'lib, o'zining mavsufi bo'lmish رجل so'zidagi ma'noga dalolat qiladi. Shunda عالم so'zi mavsufning holiga sifat deyiladi. Bu sifat o'z mavsufiga o'nta narsada tobe bo'ladi: rafda, nasbda, jarda, ma'rifalikda, nakralikda, muzakkarlikda, muannaslikda, mufradlikda, tasniyada va jamda. Bu zikr qilingan o'nda narsadan to'rttasi birgalikda o'z mavsufiga mos kelishi shart bo'ladi. Masalan, عندي رجل عالم و رجال عالمان و رجال عالمون و امرأة عالمة و امرأتان عالمتان و النسوة العالمات kabi.

Oltmish sakkizinchi dars.

Mavsufning mutaallig'idagi holga sifat.

Mavsufning mutaallig'idagi holga sifat - o'z mavsufining mutaallig'idagi ma'noga dalolat qilgan sifatdir. Masalan, جاءني رجل حسن غلامه kabi. Bu misoldagi حسن sifati mavsuf bo'lmish رجل ning muta'allig'i bo'lgan غلام so'zidagi ma'noga dalolat qiladi. Shunda حسن mavsufning mutaallig'idagi holatga sifat bo'ladi. Bu sifat o'zining mavsufiga beshta narsada ergashadi: ma'rifalikda, nakralikda,

rafda, nasbda va jarda. Bu zikr qilingan beshta narsadan ikkitasida mavsufiga muvofiq kelishi shart bo'ladi. Masalan, جاءني رجل عالم أبوه kabi.

Xulosa:

Bilginki, nakra xabariy jumla bilan sifatlanadi va bu jumlaning mavsuf bilan bog'lab turishi uchun unda nakraga qaytadigan zamir bo'lishi lozim bo'ladi. Masalan, جاءني رجل أبوه عالم kabi.

Oltmish to'qqizinchi dars.

Ta'kid.

Ta'kid - nisbatda yoki hukmning umumiylikda o'zining matbusini aniqlashtirish uchun kelgan tobe bo'lib, eshituvchidan shubhani ketkazib yuboradi.

Nisbatga misol: جاءني زيد نفسه kabi. Bu misolda tobe bo'lgan نفسه so'zi matbu bo'lgan زيد ni o'zining oldiga kelganligini aniqlashtirib, Zaydning xabari yoki elchisi kelgandir degan xayolni ketkazmoqda. Shunda نفسه so'zi زيد so'ziga ta'kid bo'ladi.

Hukmning umumiylikiga misol: جاء القوم كلهم kabi. Bu misolda كلهم so'zi o'zining matbusi bo'lmish القوم ni hammasi kelganligini aniqlashtirib, qavmning hammasi emas, balki ba'zisi kelgandir degan hayolni ketkazmoqda. Shunda كلهم so'zi القوم so'ziga ta'kid bo'ladi va e'robda ta'kidning matbusini "muakkad" deyiladi.

Ta'kid ikki xil bo'ladi: lafziy va ma'naviy.

Lafziy ta'kid - avvalgi so'z ya'ni muakkadni takrorlab keladi va u ism bo'lsa ham, masalan, جاء زيد زيد kabi, yoki fe'l bo'lsa ham, masalan, جاء جاء زيد kabi yoki harf bo'lsa ham, masalan, إن إن زيدا قائم kabi.

Ma'naviy ta'kid - maxsus bir necha lafzlar bilan bo'lgan ta'kid. Ular: نفس ، عين ، كلا ، كلتا ، كل ، أجمع ، أكتع ، أبتع ، أبصع .

Yetmishinchi dars.

Ma'naviy ta'kidning lafzlari.

Bilginki, نفس و عين so'zlari ma'naviy ta'kid uchun belgilangan lafzlardan bo'lib, muakkadning holiga qarab zamir va siyg'alardagi turi bilan birlik, tasniya

Badali ishtimol - badal mubdal minhuning mutaallig'i bo'ladi, ayni o'zi yoki bir bo'lagi emas. Masalan, ضرب زيد غلامه kabi.

Badali g'alat - xatodan keyin boshqa lafz bilan aytilgan badal. Masalan, جاءني زيد بكر kabi.

Yetmish ikkinchi dars.

Atf.

Harfli atf - atf harfidan keyin voqi bo'lib, matbusi bilan birga nisbatni maqsad qilingan tobedir. Masalan, جاءني زيد و عمرو kabi. Bu misolda عمرو tobe bo'lib, و harfidan keyin keldi va matbusi bo'lmish زيد bilan birga kelishlik ishni nisbati maqsad qilingan. Buni yana "atfi nasq" ham deyiladi. E'robda matbuni "ma'tufu alayhi" va tobening o'zini esa "ma'tuf" deyiladi.

Atfi bayon - matbuni bayon qiladigan sifatdan boshqa bo'lgan tobedir. Masalan, أقسم بالله أبو حفص عمر kabi. Bu misolda عمر tobe bo'lib, matbusini bayon qiladigan sifat emas. Uning matbusini e'robda "mubayyan" deyiladi.

Xulosa: Bir narsaning mashhur bo'lgan ikki ismi ko'pincha atfi bayon bo'ladi.

Yetmish uchinchi dars.

Omil bo'lmagan harflar.

Omil bo'lmagan harflar - amal qilmaydigan harflar bo'lib, o'n oltitadir:

1. Tanbeh harfi - muxotabdan g'aflatni ketkazish va keyin kelgan narsaga e'tiborini qaratish uchun tuzilgan amaldiz harflardir. Ular uchtadir: أ، أما، ها. Masalan, ألا زيد قائم kabi.

2. Ijob harflari - oldin o'tgan so'zni tasdiqlash uchun tuzilgan amalsiz harflardir. Ular oltita: نعم، بلى، أجل، إي، جير، إن. Masalan, birov "أجاء زيد؟" desa "نعم" deb javob berasiz.

3. Tafsiir harflari - oldin o'tgan so'zdagi maxfiylikni ketkazish uchun tuzilgan amalsiz harflardir. U ikkita: أي و أن.

'أي - mufrad yoki jumladagi mubhamlikni u bilan bayon qilinadi. Jumla bilan jumlaning أي vositasida bayon qilinsa undan oldingisi e'robda "mufassar" va keyingisi "mufassir" deyiladi. Masalan, قطع رزق اللص أي مات kabi. Ammo agar

mufradni mufrad bilan bayon qilinsa أي dan oldingisi e'robda "mubdal minhu" yoki "mubayyan" va keyingisi "badal" yoki "atfi bayon" deyiladi. Masalan, **خطب أبو حفص أي عمر** kabi.

'أن harfi - قال ma'nosidagi fe'ldan keyin keladigan tafsir harfi bo'lib, ko'pincha o'zidan oldingi fe'lning taqdiridagi maf'ulini sharhlab keladi va e'robda o'zidan oldingi taqdiridagi maf'ul "mubdal minhu" bo'lib, keyingi sharhlangan jumla "badal" yoki atfi bayon bo'ladi. Masalan, **كتبت إليه أن قم** kabi. Bu jumla aslida **كتبت إليه شيئاً أن قم** bo'ladi. "أن قم" so'zi ning taqdiridagi maf'uliga sharh bo'ladi. Gohida أن zohir maf'ulni ham sharhlab keladi. Masalan, oyatda **إذ أوحينا** "أن اقدفيه" jumlasida **أوحينا** so'zining zohir maf'uli bo'lmish ما يوحى ning sharhi bo'ladi.

4. Masdar harflari - o'zidan keyin kelgan jumlaning masdar ma'nosida qiladigan amalsiz harflar bo'lib, ular uchta: **ما، أن، أن**. Birinchi ikkitasi fe'liy jumlada keladi va jumlaning masdar ma'nosida qiladi. **أن** esa ismiy jumlada kelib, uni ham masdar ma'nosida qiladi. Masalan, **بلغني قيامك**. Bu jumla **بلغني أنك قائم** ma'nosida.

Yetmish to'rtinchi dars.

Amalsiz harflarning to'rttasi.

5. Tafg'ib harflari - muxotabni bir ishga qattiq targ'ib qilish uchun tuzilgan amalsiz harflardir. Masalan, **هلا تأكل** kabi. Ular to'rttasi: **ألا، هلا، لوما، لولا**. "Tandim harflari" ham deyiladi.

6. Kutilgan ishning xabarini berish uchun tuzilgan amalsiz harf. **قد** harfi. U moziy fe'lda haqiqat uchun yoki moziyni hozirgi zamonga yaqinlashtirish uchun ishlatiladi. Muzorida esa taqlil ya'ni kam holda sodir bo'lishini bildirish uchun ishlatiladi. Haqiqat va yaqinlashtirish uchun misol: **قد جاء زيد** kabi. Taqlil uchun misol: **إن الكذوب قد يصدق** kabi.

7. Istifhom harflar - noma'lum bo'lgan narsani bilishni talabi uchun tuzilgan amalsiz harflar.

Ular ikkita: **هل** va **أ**. Masalan, **هل جاء زيد** va **أ زيد قائم** kabi.

8. To'xtatish harfi - muxotabni to'xtatish va ishidan tiyib qo'yish uchun tuzilgan amalsiz harfdir. U **كلا** so'zidir. Bu so'z gapiruvchini to'xtatish va aytayotgan so'zidan tiyib qo'yish uchun keladi. Masalan, oyati karimada: **و أما إذا**

"ما ابتلاه فقد رزقه فيقول ربي أهانن * كلا kabi. Ya'ni "bunday demasin, ish u aytganidek emas" degan ma'noda. Gohida talab qiluvchiga ijobat qilishni nafy qilish uchun talabdan keyin keladi. Masalan, sizga birov: اضرب زيدا desa, siz كلا deysiz. Ya'ni "bunday qilmayman" degani. Ba'zan "haqiqatda" degan ma'noda ishlatiladi. Masalan, كلا سوف تعلمون kabi.

Yetmish beshinchi dars.

Tanvin.

9. Tanvin - so'zning oxirini harakatiga ergashadigan sokinli zoida nun bo'lib, fe'lning ta'kidi uchun bo'lmaydi. Masalan, رجل و عمر kabi.

Uning turi beshtadir: tamakkun tanvini, nakralik tanvini, ivaz tanvini, muqobala tanvini va tarannum tanvini.

Tamakkun tanvini - ismni mutamakkin ya'ni munsarif ekanligiga dalolat qiladigan tanvin. Masalan, زيد ، رجل kabi.

Nakralik tanvini - ismning nakraligini bildiradigan tanvin. Masalan, tanvinli صه kabi. Ma'nosi qachondir jim bo'lg'in" degan ma'noda. Agar tanvinsiz صه bo'lsa "hozir jim bo'l" degani bo'ladi.

Ivaz tanvini - ismning oxirida harf, mufrad yoki jumla bo'lgan muzofi ilayhlarning o'zida kelgan tanvindir. Harf o'rniga kelgan tanvin g'oyri munsarif bo'lgan noqis ismda raf va jar holida maxsus keladi. Masalan جوار و دواع kabi. Aslida جوار و دواع edi. Muzofu ilayh bo'lgan jumla o'rniga kelgan tanvin إذ zarf ismiga xos bo'ladi. Masalan, يومئذ و حينئذ kabi. Aslida يوم إذ كان كذا va حين إذ كان كذا bo'lgan. Muzofu ilayh bo'lgan mufrad o'rniga kelgan tanvin اي ، بعض ، كل lafziga xos bo'ladi. Masalan, oyati karimada "كلا ضربنا له الأمثال" kabi. Aslida كل واحد bo'ladi. Aslida "أيا ما تدعوه" kabi. Aslida بعضهم bo'lgan. "أيا ما تدعوه" kabi. Aslida أي اسم الحسنی kabi. Aslida أي اسم الحسنی bo'ladi.

Muqobala tanvini - jam muzakkar solimdagi ن ga muqobil o'laroq jam muannas solimga qo'shilib kelgan tanvindir. Masalan, مسلمات kabi. Bu to'rt qism tanvinlar ismga xos bo'ladi.

Tarannum tanvini - she'rlar va baytlar oxirida qofiya va chiroy uchun keladigan tanvin. Bu tanvin fe'l, ism va harflarga kelaveradi.

أقلي هذا و العتابين

و قولي إن أصبت لقد أصابن

degan shoirning so'zi kabi. Bu she'dagi العتاب va أصاب so'zidagi tanvin tarannum tanvinirdir.

أفد الترحل غير أن ركابنا

لما نزل برحالنا و كأن قدن

Bu she'rdagi tarannum tanvini oxigi قد so'zida kelgan.

Yetmish oltinchi dars.

Ta'kid nuni va shart harflar.

10. Ta'kid nuni - muzori, amr va nahy fe'llar oxirida ta'kid uchun keltirilgan tashdidli va tashdidsiz nundir. Masalan, اضربن و اضربن kabi.

11. Zoida harflar - uni hazf qilish bilan ma'noning asliga xalal yetmaydigan amalsiz harflardir. Ular sakkiztadir: ل ، ب ، ك ، من ، لا ، أن ، ما ، إن . Masalan, لا أقسم لهذا البلد kabi. Oxirgi to'rttasi talaffuzda amal qiladi.

12. Shart harflari - ikki jumlagacha kirib, ulardan birinchisi shart va ikkinchisi jazo ekanligiga dalolat qiladigan amalsiz harfdir. U ikkita: لو va أما.

'أما' umumiy jumlaning mufassal qilish uchun keladi va javobi ف bilan bo'lishi lozim bo'ladi. Masalan, " فممنهم شقي و سعيد فأما الذين شقوا ففي النار وأما الذين سعدوا ففي الجنة " kabi.

Yetmish yettinchi dars.

لولا va لو.

12. لو - ikkita jumlayi fe'liyaga kiradi va birinchi jumla nafy bo'lgani sababli ikkinchi jumlaning nafyligiga dalolat qiladi. Masalan, oyatda " لو كان فيهما آلهة إلا الله " keladi.

13. لولا - ikkita jumlagacha kiradigan amalsiz harf bo'lib, birinchi jumla mavjudligi uchun ikkinchi jumlaning nafy qiladi. Masalan, " لولا علي لهلك عمر " kabi. Aslida bu jumla عمر لولا علي موجود لهلك bo'lgan.

Yetmish sakkizinchi dars.

Amalsiz harflarning qolgan turlari.

16. Fathali lom - jumlaning ma'nosini ta'kidlash uchun fe'l yoki ismning boshida zoida bo'lib keladigan amalsiz harfdir. Masalan, لزيد أفضل من عمرو va زيد ليعلم kabi.

15. 'مادام' ma'nosidagi ما - masdariy harf bo'lib, o'zidan keyin kelgan fe'lni masdar qiladi va undan oldin muddat, zamon va vaqt kabi zarf harflaridan biri taqdir qilinadi. Masalan, أقوم ماجلس الأمير kabi. Ya'ni aslida أقوم مدة جلوس الأمير bo'ladi. Bu ما harfini masdariya bo'lgan zarf harfi ham deyiladi.

16. Atf harflari - o'zidan keyingini avvalgi bilan bog'lash uchun tuzilgan amalsiz harflardir. Ular o'ntadir: و، ف، ثم، حتى، أو، إما، أم، لا، بل، لكن. Masalan, أكرمني زيد و عمرو kabi.

Yetmish to'qqizinchi dars.

Mustasno - istisno qurolidan (ya'ni إلا va sheriklaridan) keyin zikr qilingan ism bo'lib, o'zidan avvalgiga nisbat berilgan narsa unga mansub emasligini bildirish uchun keladi. Masalan، جاءني القوم إلا زيدا kabi. Unga nisbat berilgan ism "mustasno minhu" deyiladi.

Istisno qurollari o'n bittadir: إلا، غير، سوى، سواء، حاشا، خلا، عدا، ما خلا، ما، لیس، لا یكون.

حاشا، fe'llardir. ما خلا، ما عدا، لیس، لا یكون ismdir. غير، سواء، سوى - إلا' harfdir. عدا fe'l va ism orasida taraddudli.

Mustasno ikki xil bo'ladi: muttasil va muqati'.

Muttasil mustasno - mustasno minhu ichida bo'lgan mustasnodir. Masalan، جاءني القوم إلا زيدا kabi.

Munqari' mustasno - o'z jinsidan bo'lsa yoki bo'lmasda mustasno minhu ichida bo'lmagan mustasnodir. Masalan، جاءني القوم إلا حمارا va ular orasida Zayd bo'lmagan qavmga ishora qilib aytilgan جاءني القوم إلا زيدا kabi.

Mustasno zikr qilinishi va qilinmasligi e'tiboridan mustasno ikki xil bo'ladi: mufarrag' va g'oyri mufarrag'.

Mufarrag' mustasno - mustasno minhu zikr qilinmagan mustasno bo'lib, so'z ijobiy emas. Masalan، ما جاءني إلا زيد kabi.

G'oyri mufarrag' mustasno - mustasno minhu zikr qilingan mustasnodir. Masalan, ما جاءني القوم إلا زيدا kabi.

Mujab kalom - nafy va nahy va (nafy ma'nosini o'z ichiga olgan) inkoriy istifhom bo'lmagan so'zdir. Masalan, قام زيد kabi.

G'oyri mujab kalom - unda nafy, nahy yoki inkoriy istifhom bo'lgan so'zdir. Masalan, "هل جزاء الاحسان الا الاحسان" oyatdagi ما ضرب زيد ، لاتضرب زيدا ، kabi.

Saksoninchi dars.

Mustasnoning e'robi.

Mustasnoning e'robi to'rt xil bo'ladi:

Nasbning lozimligi, nasb joiz bo'lib, o'zidan oldingiga badal bo'lishi, omilga qarab e'roblanishi va jar bo'lishi.

Mustasnoning nasb bo'lishi to'rt o'rinda lozim bo'ladi:

1. Mustasno muttasil bo'lib, mujab kalomda إلا dan keyin kelsa. Masalan, جاءني القوم إلا زيدا kabi.

2. Mustasno munqati' bo'lsa. Masalan, جاءني القوم إلا حمارا kabi.

3. Mustasno خلا va عدا dan keyin kelsa, (bu aksar olimlarning nazdida shunday. Ammo ba'zilar bu ikkisini jar qiluvchi harf deb bilishgani uchun majrur bo'lishini ham joiz deb bilishadi). Yana لا يكون ، ليس ، ما خلا ، dan keyin kelsa. Masalan, جاءني القوم خلا زيدا و عدا زيدا و ما خلا زيدا و ما عدا زيدا و ليس زيدا و لا يكون زيدا kabi.

4. Mujab kalomda mustasno mustasno mingudan oldin kelsa. Masalan, ما جاءني إلا زيدا أحد kabi.

Nasb joiz bo'lib, o'zidan oldingiga badal bo'lishi mujab bo'lmagan kalomda kelgan إلا dan keyin g'oyri mufarrag' mustasno kelsa. Masalan, ما جاءني أحد إلا زيدا yoki إلا زيد kabi.

Mustasnoning omilga qarab e'roblanishi, agar إلا dan keyin kelgan kalom mufarrag' bo'lsa, ya'ni mustasno minhu zikr qilinmasa va mujab bo'lmagan kalomda إلا dan keyin mustasno kelsa. Masalan, ما جاءني إلا زيد و ما رأيت إلا زيدا و ما مررت إلا بزيد kabi.

Jar bo'lishi esa سواء ، سوى ، غير dan keyin kelsa bo'ladi. Masalan, جاءني القوم غير زيد و سوى زيد و سواء زيد yoki aksari nahvshunoslar nazdida حاشا dan keyin kelsa. Masalan, جاءني القوم حاشا زيد kabi. Ba'zilar nazdida esa maf'ul bo'lgani uchun nasb bo'ladi. Masalan, جاءني القوم حاشا زيدا kabi.

Sakson birinchi dars.

'غير ning e'robi.

Istisnoda غير ning e'robi إلا dagi mustasno kabidir, ya'ni har xil holatda إلا bilan bo'lgan mustasno qanday e'robda bo'lsa غير ham shunday e'roblanadi. غير bilan mustasno bo'lgan majrur bo'ladi. Chunki, muzofu ilayh bo'lgani uchun. Masalan, ما جاءني أحد غير زيد va ما جاءني غير زيد القوم va جاءني القوم غير زيد و غير حمار kabi. ما مررت بغير زيد va ما رأيت غير زيد va ما جاءني غير زيد va أو غير زيد

Xulosa:

'غير so'zi sifat uchun va إلا mustasno uchun tuzilgan. Lekin gohida غير istisno uchun va إلا sifat uchun keladi. إلا ni istisno uchun ishlatish imkonsiz bo'lib qolsa, shundagina, sifat uchun ishlatiladi. Bu ko'pincha إلا dan oldin g'oyri maxsur bo'lgan nakrali jam kelsa bo'ladi. Masalan, oyatda "لو كان فيهما آلهة إلا الله لفسدتا" ya'ni غير الله، "لا اله إلا الله" kabi.

Bu kitob 1438 hijriy 20 shavvol oyida tamom bo'ldi.

Muhammad Ali Bajnuriy. Uttarprasesh. Hindiston.